

**Ягона мақсадимиз – адолат ва қонун устуверлигини
таъминлаш орқали ҳаққимизни рози қилиш.**

Шавкат МИРЗИЁЕВ



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Postda На посту



2025-yil 3-aprel
payshanba
№ 14 (4708)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

ЯНГИ

**ЎЗБЕКИСТОН –
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ**



**МАНЗИЛЛИ
МАҚСАД
САРИ**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги «2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори билан айнан маҳаллада жиноятларни жиловлашга барча вазирлик ва идоралар ички ишлар органларига кўмакчи сифатида бириттирилди.

Шунингдек, ушбу қарорга асосан, Андикон, Фарғона, Наманган, Самарқанд ва Тошкент вилоятларида криминоген вазият оғир 419 та маҳаллада 84 та янги намунадаги маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканларининг фаолиятини йўлга қўйиш белгиланди.

Тошкент шаҳри. ИИВ Малака ошириш институтида навбатдаги бир ҳафталиқ ўқув курслари якунига етиб, унда таҳсил олган криминоген вазият оғир маҳаллаларда ташкил этилган янги ҳуқуқ-тартибот масканларининг 84 нафар бош инспекторига диплом ва хизматда фойдаланиш учун «Дамас» автомашиналарини тантанали тарзда топшириш маросими бўлиб ўтди.

Мазкур автотранспорт воситалари янги ҳуқуқ-тартибот масканларида соҳанинг моддий-техник базасини янада мустаҳкамлаш ва фаолият самарадорлигини оширишга хизмат қиласи.

Фарғона вилояти. Қўйон шаҳрида «Урганжибоғ» маҳалласида ташкил этилган янги ҳуқуқ-тартибот масканни 5 та маҳалла худудини қамраб олиши режалаштирилган. Қисқа фурсалларда замонавий кўринишга келтирилиб, фойдаланишга топширилган ушбу маскан бош инспекторига янги хизмат автомашинаси, шаҳар ҳокимлиги томонидан ходимларга мотоскутерлар ва компьютер жамланмалари топширилди.



 МАРДЛАР МАНГУ ЯШАЙДИ

МАТОНАТЛИ ОНА

Наврӯз – умумхалқ байрами нишонланаётган кунлари Андижон вилояти ИИБ Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати масъуллари Булоқбоши тумани «Ширмонбулоқ» МФЙдаги 32-хонадонга ташриф буориб, Оила ва хотин-қизлар қўмитаси томонидан таъсис этилган «Мўътабар аёл» кўкрак нишони билан тақдирланган 82 ёшли Дилбархон Жалоловага мукофотни оила даврасида топширишди.



Онахоннинг қувончдан кўзлари порлади. Бу мукофот узоқ йиллик ҳалол хизматлари, қолаверса, фарзандининг қаҳрамонлиги ортидан муносиб кўрилганлиги уни фурурлантириди. Үғли Ҳалимжоннинг ёрқин хотирави касбдошлари қалбида мудом сақланаётганидан қўнгли тоғдек кўтарилиди.

Шу куни кечга қадар Дилбархон аяни йўқловчилар тинмади. Барча уни матонатли аёл, қаҳрамон фарзанднинг онаси сифатида қутлади. Бу тақдирловдан сўнг қалбини минг бир ҳислар чулғаб олди. Ўтган ҳаёт йўлларини, топган ва йўқотганларини ёдга олди. Кенжатои, нуридийдаси Ҳалимжоннинг ҳаққига дуо қилди.

Агар ҳозир Ҳалимжон Жалолов ҳаёт бўлганида, 49 баҳорни қаршиларди. Афсуски, ғараз ниятли ёвуз кимсалар уни яшамоқ баҳтидан барвақт жудо этди. У 2005 йилнинг 13 май куни ўз хизмат вазифасини бажараётган вақтда, тиш-тироғигача қуролланган душманнинг ўқидан ҳалок бўлди. Ўлимидан сўнг Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонига биноан, «Жасорат» медали билан мукофотланган.

Ҳалимжон билим юртида машинист-технолог йўналиши бўйича таҳсил олгач, ҳарбий хизматга йўл олди. Сўнгра посон лавозимида фаолият юритиб, 2000 йил Андижон шаҳар ИИБга қарашли Қўриқлаш бўлимида иш бошлади.

Оиладаги етти фарзанднинг кенжаси бўлган Ҳалимжонни феъл-автори кўпроқ онасига ўхшарди.

– Болам меҳнаткаш, очиқўнгил эди. Орзулари кўп эди. Ватан учун жонини аямаганидан фурурланиб юраман, – дейа фарзандини хотирлади Дилбархон ая.

Оғир жудоликка сабр ила дош берган, уни ҳаётнинг бир синови дейа қабул қилган бу меҳридарё

онахон ҳақида кўпчиликдан жуда илиқ фикрларни эшийтдик. Уни таниган инсон борки, аянинг одамохунлиги, шириңсўзлиги, меҳнаткашлиги, тиниб-тинчимаслигини айтиб алқади.

Дилбархон ая узок йиллар фармацевтика соҳасида фаолият юритган. Пенсияга чиққач, маҳалла фуқаролар йигинида маслаҳатчи бўлиб ишлади. 80 ёшига қадар эл-юрт, маҳалла-кўй тинчлиги, ободлиги йўлида тиним билмади. Тумандаги ҳеч қайси тадбир Дилбар аясииз ўтмаган. Кўп масалаларда унинг маслаҳатига

қулоқ тутишарди. Инсульт туфайли ҳаракати чекланиб қолганидан бўён жамоат ишларида қатнаша олмаяпти. Аммо ҳаётининг ёрқин саҳифалари ёшларга тарбия бериш, жамият учун фаол хизмат қилиш каби эзгу амаллар билан безак топди.

– Укам гулларни роса яхши кўрарди. Доим гул кўтариб келарди, — дейа хотирлайди опаси Мехринса Кувватова. – Биз турмушга чиқиб кетганимиздан кейин ҳам ҳар байрамда уйимизга совға кўтариб бориб, йўқлашни сира канда қилмаган. Ўзгача меҳрли эди укажоним. «Ховлимизнинг ҳамма жойини гулзорга айлантираман» дерди. Қўнгли ҳам гул каби хушбўй бўлган жигаримнинг.

Ширмонбулоқ қишлоғида намунали оила сифатида эътироф этилувчи бу хонадон аъзоларининг деярли барчаси ибратга лойик. Раҳматли Сотоводи тоға ва Дилбархон ая етти фарзанднинг ҳаммасини ўқитди, хунарга йўналтириди. Ҳалимжоннинг ёлғиз ўғли Муҳаммадхалил Андижон давлат университети тарих факультети битирувчиси. Мақсади – ота изидан бориб, жамиятга ҳалол хизмат қилиш. Ҳалимжон билан нафақат яқинлари, балки бутун қишлоқ фахрланади. У таълим олган Булоқбоши туманидаги 45-мактабда қаҳрамон хотирасига «Жасорат бурчаги» ташкил этилган. Майдонга ўрнатилган ёдгорлик ёшларда ватанпарварлик, ўтган кунлардан сабоқ олиш туйғуларини шакллантиради. Ўқитувчи ва ўқувчилар мактаб директори Иродохон Абдуллаева етакчилигига ҳар бир байрам ва тадбирларда марҳумнинг хонадонига келиб, уни хотирлайди, яқинларининг холидан хабар олади. Ҳа, биз ўз қаҳрамонларини ҳеч қачон унутмайдиган миллатмиз.

**Нигора МИРОЛИМ қизи,
ўз мухбиримиз.**

Андижон вилояти.

 «ЯШИЛ МАКОН»

Умуммиллий лойиҳа доирасида «яшил белбоғ»ларни ташкил этиш, дарё ва канал ёқаларида ерларни муҳофаза қилиш ҳамда уларнинг эрозияга учрашининг олдини олиш мақсадида Сурхондарё вилояти ИИБ ходимлари томонидан ҳам жойларда кўчат ўтқазиш ва яшил боғлар яратиш каби хайрли ишларга қўл урилмоқда.

КЎЧАТ ЭКИБ, БОҒ ЯРАТ!

Айтиш жоизки, вилоят ИИБ ходимларининг саъй-ҳаракати билан, хусусан, Музработ туманидаги «Орият» маҳалласи ҳудудида «Сурхондарё вилояти ИИБ боғи» барпо этилган. Қарийб 1 гектар ер майдонига шафтоли, ўрик, беҳи каби мевали ҳамда манзарали дараҳт кўчатлари экилиб, бугунги кунда ушбу ҳудуд катта боғга айлантирилган. Кўчатларни суғориш учун эса боғонлар бириктирилган.

Ангор туманидаги «Шарқ гули» маҳалласида ҳам яқинда ИИБ ходимлари томонидан 1500 туп мевали ва манзарали кўчатлар экилди.

– Кўчатларни эккандан кейин уни парвариш қилиш, суғориш лозим. Бунинг учун масъуллар бириктирилди. Кўчат экиш нафақат ҳавони мусаффо қиласи, балки



атроф-муҳитни гўзалластиради, тупроқни эрозиядан ҳимоя қиласи ва иқлимга ижобий таъсир кўрсатади. Бу келажак авлодлар учун ҳам катта фойда келтиради, — дейди Ангор тумани ИИБ бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, майор Мансур Саидов.

**Феруза РАҲМОНҚУЛОВА,
ўз мухбиримиз.**

Сурхондарё вилояти.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

OGOHLIK – DAVR TALABI

USTOMON MIJOZ

Yaqinda O'zbekiston tumanida bir necha fuqarolar kiberjinoyat qurboni bo'ldi. Tashkilotlardan birida ishlaydigan xodim o'zining hamkasblarini aldab, shaxsiy ma'lumotlarini qo'liga kiritadi va ularning nomiga jami 75 million so'm kredit rasmiylashtirib oladi.

Jabrlangan fuqarolar tuman ichki ishlari bo'limiga murojaat qilgach, ushbu holat yuzasidan qo'shimcha o'rganishlar olib borildi. Surishtiruvlar jarayonida birovning nomiga kredit olgan yigit onlays qimor o'yinlariga mukkasidan ketganligi, o'zining bor-budini yutqazib qo'ygach, shu ishga qo'l urganligi ma'lum bo'ldi. Noto'g'ri qadam tufayli jinoyat ko'chasiga kirgan bu yigitga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Endi u qonun oldida javob beradi.

O'YINDAN O'T CHIQDI

Toshloq tumanining «Sadda» mahallasida yashovchi ayol esa telegram ijtimoiy tarmog'i orqali o'zi tanimagan shaxsga ishonib, 7 mln 590 ming so'm pulidan ayrıldi. Gap shundaki, noma'lum kimsa uni aldab, yutuqli o'yinda 34 mln so'm pul mukofoti yutib olganligini, ushbu pullarni olish uchun komissiya to'lovi sifatida 7 mln 590 ming so'm mablag'ni plastik kartasiga o'tkazib berishni so'raydi. Bu yolg'onga ishongan sodda ayol aytilgan summani o'tkazib beradi. Kiberxavfsizlik bo'limi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor o'rganishlar natijasida ushbu jino-

Kiberxavfsizlik bo'limi xodimlari bu turdag jinoyatga qarshi kurashish bilan birga, ularning oldini olish borasida ham ko'plab xayrli tadbirlarni amalga oshirayotganini e'tirof etish zarur. Masalan, yaqinda Farg'ona shahar IIB binosida Kiberxavfsizlik laboratoriysi tashkil qilindi. Ushbu laboratoriyaada axborot texnologiyalari va kiberxavfsizlik sohasida tadqiqotlar o'tkazish hamda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatida raqamli dalillarni to'plash, isbotlash va faoliyatni texnik ta'minlash ishlari yo'iga qo'yildi. Bu ishlarga Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filialidan saralab olingan iqtidorli talabalar ham jalb qilindi.

FARG'ONA TAJRIBASI
OMMALASHSA...

Viloyat IIBda bu yo'nalishda orttirilgan Farg'ona tajribasini respublika bo'yicha ommalashirish maqsadida «Axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan firibgarlik va o'g'rilik jinoyatlariga qarshi kurashish: muammo va yechimlar» mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi.

Aholini ogohlikka chorlovchi targ'ibot ishlari esa jiddiy e'tibor berilmoqda. Xususan, joriy yilning o'tgan davrida maktablarda **61 marotaba**, olyi ta'lim muassasalarida **44 marotaba**, mahallalarda **288 marotaba**, korxona-tashkilotlarda **38 ma-**

MOBIL SAVODXONLIK PAND BERSA

yoxud kiberjinoyatchilarining nayrangi



yatni Namangan viloyati Kosonsoy tumanida tug'ilgan fuqaro sodir etganligi aniqlandi.

Toshloq tumanida istiqomat qiluvchi ikki nafar shaxs bir kunda 5 nafar sodda ayolni shu taxlit laqilatganiga nima deysiz? Ustomon yigitlar ayollarning uyali telefoni va plastik karta raqamlarini qo'liga kiritib, ularning nomiga onlays kredit rasmiylashtirishadi. Tushgan pulni esa bir zumda o'z kartalariga o'tkazib olishadi. Hozirda mazkur holat yuzasidan ham tuman IIB tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilyapti.

HUSHYORLIK TALAB QILINADI

– Bugun kiberjinoyatlarning turi va shakllari kundan-kun o'zgarib, yangi-yangi nayranglar o'ylab topilyapti, – deydi viloyat IIB Tezkor qidiruv xizmati Kiberxavfsizlik bo'limi boshlig'i, mayor Murodjon G'ofurov. – Ilgari o'g'rilik, talonchilik, firibgarlik, birovning mol-mulkini qo'liga kiritish bilan bog'liq jinoyatlar odamlarning qo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, endi ular axborot texnologiyalari yordamida osongina amalga oshirilyapti. Shu bois, endilikda har bir fuqarordan mobil savodxonlik hamda hushyorlik talab qilinadi. Huquq-tartibot organlari har qancha kurash olib bormasin, agar fuqarolarning o'zlarini ogoh bo'lisha, harakatlarimiz samara bermasligi mumkin.

rotaba, bozor va aholi gavjum joylarda **180 marotaba** huquqiy-targ'ibot tadbirlari tashkil qilindi.

Targ'ibot tadbirlari onlays va oflays usullarida olib borilib, **20 million** nafardan ortiq aholi qamrab olindi. Mazkur jarayonda fuqarolarni kiberjinoyatlar xavfidan ogohlikka chorlovchi **3456** turdag tarqatma materiallar, **9 ta** videoroliklar, **10564** turdag flayerlar tarqatildi.

SHAXSIY MAS'ULIYAT MUHIM

- Bunday jinoyat qurboniga aylanmaslik har bir fuqaroning o'ziga, va hushyorligiga bog'-liq, – deydi Kiberxavfsizlik bo'limi katta mutaxassis, katta leytenant Kamronbek Qurbonov.
- Fuqarolarimizga murojaat qilib, telegram orqali kelayotgan shubhali havolalarini ochmaslikni, tasdiqlanmagan xabarlarga ishonmaslikni, shaxsiy ma'lumotlar hamda plastik karta xos raqamlarini begona odamlarga taqdim etmaslikni maslahat beramiz. Kiberjinoyatlardan faqatgina o'zingizning hushyorligingiz asraydi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

HAFTA XABARLARI

SAMARQANDDA
MUHIM MUZOKARALAR
BOSHLANDI

Bugun Samarqandda «Marказиј Осио – Европа Иттилоғи» birinchi sammiti tadbirlari boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tdigan sammit ishida Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtiroy etdi.

«DO'STLIK»
STELASI OCHILDI

Kuni kecha Tojikistonning Xo'jand shahrida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston do'stligi timsoli bo'lmish «Do'stlik» stelasi tantanali ravishda ochildi. Unda ham uchala davlat rahbarlari ishtiroy etdi.

BIRINCHI OROL
MADANIYAT SAMMITI
OTKAZILADI

Joriy yildan boshlab, har 18 oyda – bahor yoki kuz faslida Orol madaniyat sammiti o'tkazib boriladi. Bu 28-mart kuni qabul qilingan «Orol madaniyat sammitini yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida»gi Prezident qarorida belgilangan.

Qarorga ko'ra, birinchi Orol madaniyat sammiti Samarqand iqlim forumi bilan uyg'un holda 2025-yil 4-6-aprel kunlari Samarqand va Nukus shaharlarda tashkil etiladi.

488 NAFAR SHAXS
AFV ETILDI

Mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev Ramazon hayitini nishonlash arafasida «Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmonni imzoladi. Unga ko'ra, afv etilgan shaxslarning 100 nafari asosiy jazodan to'liq ozod etildi, 268 nafari jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 34 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashtirildi. Shuningdek, 86 nafar shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum etish jazosining muddatlari qisqartirildi.

KITOBXON XODIMA

ORZULARI KARVON, SARBONI – ISHONCH



Katta leytenant Onorxol Ismoilova xizmatdan keyin oilasi, uy-ro'zg'or yumushlari, shirintoy o'g'li Muhammadazizdan vaqtি ortib qoldi, deguncha, darhol badiiy va huquqiy adabiyotlarni o'qishga chog'lanadi.

– Kitob – beminnat us-toz, bilim manbayi, – deydi lavhamiz qahramoni. – 2018-yil IIV Akademiyasini imtiyoziy diplom bilan tamomladim. Bu muvaffaqiyatga erishishim oson bo'lmagan, juda ko'p o'qirdim. Biroq kitob o'qishda ham o'ziga xos jihat bor ekan. Buni Samarcand viloyati Payariq tumani IIB Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmasi voyaga yetmaganlar bilan ishslash guruhi voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog sifatida ilk xizmatimni boshlagan kezlarimda tushunib yeddim.

Qahramonimiz hozirda Toshkent shahar Olmazor tumani bo'yicha IIOFMB 4-sonli Ichki ishlar bo'limi HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori. Xizmat jarayoni asosan Toshkentdagi Turin politexnika universitetida tahsil olayotgan xotin-qizlar bilan kechadi. U talabalar ishtirokida jinoyatçilik va huquqbazarliklarning oldini olish, tazyiq va zo'ravonlik qurboni bo'imaslik, turli ekstremistik guruhlarga qo'shilib qolmaslik va boshqa muammolarni bartaraf etish maqsadida muntazam profilaktik suhbatlar olib boradi. Ayniqsa,

talabalar uyida yashovchilariga alohida e'tibor qaratadi. Ular duch kelgan muammoli vaziyatlarga mutasaddi tashkilot va idoralar bilan hamkorlikda yechim topishga harakat qildi.

– O'g'lim Nursulton Milliy gvardiya xodimi, – deydi lavhamiz qahramonining qaynonasi Xayrinisa Jiyamuratova. – Farzandimni uylashga kelganda otasi ikkimiz bir qarorga kelishimiz qiyin bo'lgan. Chunki o'g'limni oilada ham, ishida ham yelkadosh bo'lib, uni tushunadigan qizga uylantirishimiz kerak edi. Kelingimga bir ko'rishda mehrim tushib qolgan. Shukur, bugun bolalarimning baxti to'kis. Ikkisi ham xizmatini bekam ado etib kelishyapti. Zarur bo'lsa, hamisha yordamga tayyorman.

Hayotda muvaffaqiyatlariga shunchaki erishilmaydi.

Balki kattami-kichikmi yutuq ortida ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan fidoyilik bo'ladi, albatta. Katta leytenant Onorxol Ismoilova yaqinda Jizzax viloyatining Zomin tumanida Ichki ishlar vazirligi tizimlarida xizmat olib borayotgan xotin-qizlar o'rtasida o'tkazilgan IV forum doirasida «Eng yaxshi kitobxon ayol xodim» tanlovida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Yosh xodima xizmatda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'kis bajarishida, oilada yaxshi beka, ona, kelin bo'lishida yaqinlari ning alohida hissasi borligini yashirmaydi.

Har bir ayolga oilasi, yaqinlarining mehri, ardog'i kuch, ishtiyoiq, ertangi kunga umid beradi. Mening ham kelajakda rejalarim ko'p. Xizmatdan ajralmagan holda huquqshunoslik yo'nalişida magistraturada ta'lim olish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish niyatidaman.

Kitobni tafakkur mayog'i sanagan lavhamiz qahramoni doim intilish, izlanishda. Uning orzulari karvon, sarboni – ishonch. Shijoat esa hamisha hamrohidir.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.**

“

– MEN OILADA YOLG'IZ FARZANDMAN, – DEYDI U. – OTA-ONAM DOIM QIZIQISHLARIMNI QO'LLAB-QUVVATLASHGAN. OILA QURGANIMDAN SONG TURMUSH O'RTOG'IM, QAYNOTA-QAYNONAM MENGA SUYANCH BO'LISHIDI. FORUMDA ISHTIROK ETAYOTGANIMDA HAM, O'G'LIM MUHAMMADAZIZGA QAYNONAM QARAB TURDILAR. U ENDIGINA IKKI YOSHNI QARSHILADI. BOBOSI VA BUVISINING ERKASI.



■ Ферганская область



«ГОРЖУСЬ, ЧТО ПРОДОЛЖАЮ ДЕЛО ОТЦА», — говорит капитан Абдулхай Хабибиддинов.

Его отец, майор Шухратжон Топиев, более двадцати лет посвятил службе в органах внутренних дел. После выхода на заслуженный отдых он оставил после себя доброе имя и высокую профессиональную репутацию. К сожалению, в 2021 году Шухратжон ака ушел из жизни, но его дело продолжает сын.

Многие ветераны органов внутренних дел видят в Абдулхае Хабибиддинове черты его отца – ту же исправку, принципиальность и ответственность. Сам инспектор с уважением относится к сослуживцам отца,

навещает их и поддерживает связь.

– Окончив Ферганский государственный университет, без колебаний подал документы в органы внутренних дел, тщательно готовился к экзаменам, – рассказывает инспектор по особым поручениям службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения УВД области капитан А. Хабибиддинов. – Мечта сбылась: в 2017 году я был принят в патрульно-постовую службу. Отец напутствовал меня: «Ты выбрал славную профессию. Будь достоин звания защитника мирной жизни граждан».

За годы службы Абдулхай Хабибиддинов накопил ценный опыт, работая инспектором профилактики в Алтыарыкском районе. Профессионализм и навыки сотрудника были замечены руководством, и ему предложили должность в службе кадрового обеспечения.

Примерный семьянин вместе с супругой воспитывает троих детей. Сыновья Мухаммаджон и Билолбек уже сейчас проявляют интерес к профессии отца. А его мама Дилфузахон Топиева довольна своим сыном.

**Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.**

 Духовное наследие

БЕХБУДИ – СИМВОЛ ЭПОХИ

С участием курсантов и педагогов Академии МВД Узбекистана проходит цикл мероприятий, посвященных 150-летию со дня рождения основателя джадидского движения в Туркестане Махмудходжи Бехбуди.


Духовно-просветительский вечер, приуроченный к юбилейной дате, был организован совместно с Союзом писателей. Выступавшие подчеркнули, что Бехбуди – выдающийся представитель национального освободительного движения, литератор и педагог, чья многогранная



деятельность оказала огромное влияние на развитие культуры и общественной мысли в Центральной Азии. Он основал газету «Самарканд», журнал «Ойина», где публиковались актуальные публицистические статьи, возглавил организацию издательств и театров. В 1914 году была поставлена его пьеса «Падаркуш», которая положила начало развитию современного театрального искусства в стране. В ходе мероприятия курсанты представили фрагменты из этого драматического произведения.

У памятника Бехбуди, установленного на столичной Аллее литераторов, прошло мероприятие, в ходе которого одаренные курсанты Академии и учащиеся Республиканской специализированной художественной школы им. П. Бенькова создавали творческие произведения. Звучали вдохновенные строки из книг выдающегося просветителя.

Холида ХОЛПУЛАТОВА,
курсант Академии МВД Узбекистана.



VIDEOKUZATUV KAMERASI ORQALI jinoyat fosh etildi

Namangan shahar IIB Navbatchilik qis-miga joriy yilning 17-mart kuni Namangan shahar «G'uncha» mahallasida istiqomat qiluvchi, 1971-yilda tug'ilgan fuqaro M.Q. murojaat qilib, shaharning «Chorsu» dehqon bozorida hojatxonaga kirib ketayotib, sumkasi ichida qoldirgan 10 mln so'm pul va «Redmi-9» rusumli uyali telefon apparati yo'qolganligini ma'lum qilgan.

Mazkur holat yuzasidan Namangan shahar IIB 2-sonli IIB JQB tezkor vakili, kapitan Sh. Zokirov surishtiruv ishlarini olib borib, shahar hududidagi markazlashtirilgan videoku-zatuv moslamasi xotirasidagi tasvirlarni ko'zdan kechirarkan, e'tiborini bozor hududida atrofga



olazarak boqib, bezvtalanib ketayotgan bir fuqaro tortadi. Mohir izquvar darhol shubhalishaxs iziga tushadi.

Yangiqo'rg'on tumanidagi yashash xonadoniga yetib borgan I.R. ortidan to'satdan kirib kelgan xodimni ko'rib, rangi-qutti o'chadi. Hatto ashyoviy dalillarni yashirishga ham ulgurmay qolgan I.R.ning yonidan xolislar ishtirotikida «Redmi-9» uyali telefon apparati olinib, tegishli tartibda hujjatlar rasmiylashtiriladi. Hozirda mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

O'z muxbirimiz.
Namangan viloyati.



www.postda.uz



t.me/postdaramsiy




www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz



Молодежь — наше будущее



Герой очерка — выпускник Московского университета МВД России им. В. Я. Кикотя.

— После окончания вуза в 2020 году в соответствии со специальностью был направлен в экспертизно-криминалистическое подразделение УКД ОВД Яшнабадского района Ташкента. Профессиональную деятельность начал под

руководством наставника подполковника Станислава Ланкина, который щедро делился опытом, — рассказывает наш собеседник.

— С созданием в столице Янги-хаётского района был назначен старшим экспертом во вновь сформированный ЭКО УКД ОВД.

В 2023 году руководство приняло решение о переводе пер-

В рядах специалистов органов внутренних дел несут службу молодые офицеры. Они выполняют ответственные задачи по противодействию преступности, обеспечению общественной безопасности. Один из них — старший лейтенант Мамуржон Юлдашев.

спективного сотрудника старшим экспертом в ЭКЦ ГУВД столицы, где он несет службу в настоящее время.

Старший лейтенант М. Юлдашев имеет допуски на осуществление всех семи традиционных видов экспертиз. Но не в его характере останавливаться на достигнутом: изучает новые методы работы, взаимодействует с коллегами из ГЭКЦ МВД, Республиканского центра судебной экспертизы им. Х. Сулаймановой. Он работает в составе «прокурорского» наряда, участвуя в расследовании тяжких и особо тяжких преступлений.

… В рамках уголовного дела была назначена комплексная — почерковедческая и технико-криминалистическая экспертиза документов. Группа лиц подозрева-

лась в предварительном сговоре и представлении в гражданский суд поддельных расписок о получении большой суммы денег. Проведение экспертизы поручили старшему лейтенанту М. Юлдашеву. Установлено, что рукописные записи в расписках выполнены членом преступной группы, а подписи — методом копирования на просвет. Экспертиза явилась одним из ключевых доказательств для привлечения злоумышленников к уголовной ответственности.

По общему мнению коллег, старший лейтенант М. Юлдашев обладает серьезной теоретической подготовкой, широкой эрудицией и важными профессиональными качествами, что способствует достижению положительных результатов в службе.

Рафик ЕНИКЕЕВ.



В здоровом теле — здоровый дух

ОТМЕЧЕНЫ СИЛЬНЕЙШИЕ

В Зарбардском районе Джизакской области прошел чемпионат Узбекистана по волейболу среди девушек до 15 лет. В турнире приняли участие 14 команд из разных регионов страны. Соревнования проводились по правилам Международной федерации волейбола.

По итогам упорной борьбы первое место завоевала команда Самаркандской области. Серебряные награды достались спортсменкам из Андижанской области, а третье место заняли волейболистки из Сурхандарьинской области.

На торжественной церемонии закрытия соревнований выступили организаторы и почетные

гости. Они отметили важность подобных турниров для отбора талантливых игроков в национальную сборную, популяризации спорта среди молодежи и пропаганды здорового образа жизни.

Победители и призеры награждены медалями, дипломами и ценными призами. Награды вручили председатель областной федерации волейбола, на-



чальник УВД Джизакской области генерал-майор Гайрат Кодиров и другие официальные лица. Также были отмечены лучшие игроки турнира: самарканки Малика Аслидди-

нова и Шахризода Кузибоева, андижанка Райхона Узганбоева и Ойхон Холёрова из Сурхандары.

Добавим, что с 22 марта по 8 июля в регионах Узбекистана пройдет первен-

ство страны по волейболу среди юношей и девушек разных возрастных категорий.

Алижон
АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.


www.postda.uz

t.me/postdaramsiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

МАНЗИЛЛИ МАҚСАД САРИ

(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)

Қарор ижросини таъминлаш мақсадида ишлаб чиқилган «йўл харитаси»га асосан, вилоят худудидаги 20 та замонавий хукуқ-тартибот маскани ташкил этиш режалаштирилган. Ушбу масканлар орқали 100 та оғир тоифадаги маҳаллани қамраб олиш ва жинояччиликни жиловлашда янгича ёндашувлар асосида иш ташкил қилиш кўзда тутилмоқда. Айни пайтда ушбу хукуқ-тартибот масканларининг барчасида қурилиш-таъмирлаш ишлари жадал амалга оширилмоқда.

Шу ўринда Фарғона шаҳридаги Абдулла Қодирий номли маҳаллада ташкил этилган янги хукуқ-тартибот маскани очилганини таъкидлаш жоиз. Хукуқ-тартибот маскани жойлашган микрохудудда 5 та маҳалла фуқаролар йигини мавжуд бўлиб, улардаги 4000 та хонадонда 27 минг нафар аҳоли истиқомат қиласди. Янги маскан эса ушбу аҳолини кенг қамраб олиш ва профилактик ишларни янгича ёндашув асосида олиб бориш имкониятига эга. Айниқса, маҳалла тўлиқ рақамлаштирилиб, кузатув камералари хукуқ-тартибот масканидаги ситуацион марказга интеграция қилингани жинояччиликни жиловлашда қўл келади.

Ўз мухбиримиз.



ISTAK BO'LSA, IMKON TOPILADI

Hech kim onadan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, buning negizida turli ijtimoiy-iqtisodiy sabablar, nosog'lom muhit kabi bir qancha omillarning ta'siri mavjud ekanligi aniqlangan. Shu boisdan ham qilgan xatti-harakatining oqibatini anglab yetmaganligi tufayli jinoyatga qo'l urgan shaxslar ham uchrab turadi.



Joriy yil boshidan 3050 nafar shaxs Qoraqalpog'iston Respublikasi IIJ JXX Probatsiya bo'limi hisobida edi. O'tgan ikki oy davomida 542 nafari hisobdan chiqarilgan bo'lsa, 198 nafari sud-larga kiritilgan taqdirmnomaga ko'ra muddatidan oldin shartli ravishda ozod etilgan. Shuningdek, ushbu davr mobaynida ularning qayta jinoyat sodir etishining oldini olish, muammolarini o'rGANISH yuzasidan qator ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Joriy yilning 7-mart kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi IIJning tajribali xodimlaridan iborat ishchi guruh tomonidan shahar va tumanlarda xavf-sizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olish borasida Qonliko'l tumanida amalga

oshirilayotgan ishlari ahvoli o'rganildi. Ishchi guruh a'zolari probatsiya nazoratidagi shaxslar ishlaydigan «LAN-C» va «A.Alekenov» MCHJlarga borib, ishchilar uchun yaratilgan sharoitlar, mehnat haqlarining o'z vaqtida to'lanishi va boshqa qator masalalar yuzasidan suhabatlari o'tkazishdi. Shu kunning o'zida Probatsiya xizmati nazorat ostidagi shaxslar uchun psixologik trening mashg'ulotlari tashkil etildi.

Trening davomida, ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi. Shuningdek, qayta jinoyat sodir etishining oldini olish bo'yicha tushuntirishlar berildi.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

XATONI TUZATMASLIK AYB...

Namangan viloyati IIJ JXX Probatsiya boshqarmasi hisobiga 8112 nafar shaxs olingan. Hozirda sudlar tomonidan jinoyat sodir etgan shaxslarning chin dildan pushaymonligi inobatga olinib, qo'llanilgan jazoni yengilrog'iga almashtirish yoki shartli ravishda jazodan ozod etish samarali kechmoqda.

Viloyat IIJ JXX Probatsiya boshqarmasi va uning hududiy bo'linma (gruruh)lari tomonidan amalga oshirilgan uchrashuvlar va davra suhabatlari natijasida joriy yilda mazkur yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatishni istagan 18 nafar fuqaroga ana shunday yordam ko'rsatildi. Jumladan, Namangan tumani «Tepa Qiyot» mahallasida yashovchi, 1988-yilda tug'ilgan D.H. dastlabki ijtimoiy yordam paketi pullariga chorvachilik bilan shug'ullanmoqda. Shuningdek, Chust tumani «Munchoqtepa» mahallasida yashovchi, 1984-yilda tug'ilgan R.A. ham chorvachilik uchun subsidiya oldi. Namangan shahri Ilg'or mahallasida yashovchi, 1992-yilda tug'ilgan I.X. ga tikuva mashinasini uchun subsidiya ajratilib, hozirda yostiq jiddlari tikish bilan shug'ullanmoqda. Bu bilan uning oilaviy daromadi oshmoqda. Bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Kechirilmilik va bag'rikenglik tamoyilining davlat siyosatida aks etishi ko'plab yo'ldan adashgan in-

sonlarning hayotda o'z o'rnini topib ketishiga ko'mak bermoqda. Zero, xato qilish ayb emas, uni o'nglamaslik, tuzalmaslikdan yomoni yo'q.

Jazodan ozod etilganlar bilan suhabatlashsangiz, ularning aksariyati berilgan imkoniyatni to'g'ri tushunib yetganini, ozodlikda yaqinlari bag'rida yashash katta ne'mat ekanini anglab yetgan. Probatsiya guruhি xodimlari esa nazoratdagi shaxslar bilan profilaktik tadbirlar olib bo-



rish, doimiy ravishda aloqada bo'lib, muammolariga yechim topayotganliklari samara berayotganini alohida e'tirof etish joiz.

Abdurahmon BOBOYEV,
podpolkovnik.

Namangan viloyati.

INSON QADRI UCHUN

FUQAROLIK BAXTI

Mamlakatimizda inson qadr-qimmatini mustahkamlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.



Farg'ona viloyati. Ko'p yildan beri yurtimizda yashab, uning rivojlanishi ga munosib hissa qo'shib kelayotgan fuqaroligi bo'Imagan shaxslarni fuqarolikka qabul qilish, ularning ijtimoiy-siyosiy maqomini mustahkamlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi ham fikrimizi isbotlaydi.

Muborak Ramazon hayiti arafasida Prezidentimizning tegishli farmoniga ko'ra, ko'plab insonlar fuqarolik maqomiga musharrat bo'lishdi. Quvonarlisli shundaki, ularning 20 nafari viloyatimizda istiqomat qiluvchi shaxslardir.

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov fuqarolikka qabul qilingan shaxslarga ID-kartalarini tantanali ravishda topshirarkan, davlatimiz rahbari to-

monidan berilgan bunday e'tiborga javoban jonajon Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida sidqidildan xizmat qilib, Yangi O'zbekistonni yanada rivojlantirishga munosib hissa qo'shishga chorladi. Fuqarolik baxtiga erishganlar esa yuksak e'tibor va g'amxo'rlik uchun Yurtboshimizga minnatdorlik bildirishdi.

– Men bu kunni 20 yil intiqib kutdim, – deydi Beshariq tumanida yashovchi, Ra'xonon Rahmatova ko'zda quvonch yoshi bilan. Taqdir taqozosi bilan bir muddat Tojikistonning Isfara shahrida yashashimga to'g'ri kelgan. Ona yurtimizga qaytgach, fuqaroligi yo'q shaxs guvohnomasini oldim. Prezidentimizga ming rahmat, bizning iltimoslarimizni inobatga olib, fuqaro-

likka qabul qildi. Bugungi quvonchimni so'z bilan ifodalab berolmayman.

1982-yilda tug'ilgan yozyovonlik Farrux Fayzullayev ziyoli oilaning farzandi bo'lsa-da, haligacha pasport ololmay kelayotgandi. Buning ham o'ziga bog'liq bo'Imagan sabablari bor, albatta.

– Ota-onam o'qituvchi bo'lgan, – deydi yigit hayajonini yashirolmay.

– Sobiq ittifoq davrida Qирг'изистон hududida yashab, o'sha yerdagi maktablarda ishlashgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, Yozyovonga kelib, hozirgacha shu yerda yashashadi. Men esa Qирг'изистон hududida tug'ilganim uchun haligacha fuqaroligi yo'q shaxs edim. Bugun esa yurtboshimizning insonparvar siyosati tufayli jonajon Vatanimning baxtli fuqarosiga aylandim. Menga va men qatori

yurtdoshlarimizga berilgan imkoniyat va rag'bat uchun minnatdorlik bildirib, bor kuch va g'ayratimni shu yurt rivoji uchun safarbar etishga so'z beraman.

Surxondaryo viloyatida 56 nafar shaxs O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilindi. Shu munosabat bilan viloyat hokimligida tashkil etilgan tadbirda viloyat hokimi U. Qosimov fuqarolik maqomini oлган shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi ID-kartalarni topshirdi. Uchrashuvda so'zga chiqqanlar O'zbekiston fuqaroligini olish fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga mamlakatning barcha huquq va erkinliklaridan to'liq foydalanan imkonini berishini, ularning ijtimoiy himoyasi va huquqiy maqomini mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladi.

O'z muxbirlarimiz.



AYOL VA JAMIYAT

QAYNONALARGA HAM HIMOYA ORDERI BERILYAPTI

«Qayerga borsang boraver, senga kim ham quloq solardi!» Bu – eri va hatto bolalari muntazam kansitib kelayotgan ayolga eri tomonidan aytigan tazyiqlardan biri. Ayol bunday xo'rliklarga chiday olmay, tegishli idoraga murojaat qildi. Murojaat natijasi qanday bo'ldi? Umuman, bu ayolni eri bilan birga bolalari nega haqorat qiladi o'zi?

Gap zo'ravonlik, tazyiq haqida ketganda, hanuzgacha ayolni ayblaydiganlar ham bor. To'g'ri, keyingi paytda ayollarini tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda, bu borada jiddiy qadamlar tashlandi. Biroq...

– Ko'pchilik oiladagi notinchiliklarga ichki ishlar organlari xodimlari aralashsa, bu oiladagi keyingi vaziyat yaxshilanmaydi, aksincha bo'ladi, degan yanglish fikrda, – deydi viloyat IIB JXX HPB boshlig'i o'rinnbosari podpolkovnik Nigora Yodgorova. – Vaholanki, oiladagi zulm, tazyiq davom etaversa, bu xonadonda bir

kuni jinoyat sodir etilishi mumkin.

Viloyat bo'yicha o'tgan yil davomida 2033 nafar xotin-qizga himoya orderi berilgan. Tazyiq va zo'ravonlik sodir etilgan joylar haqidagi gap ketganda, ularning 1814 tasi oilada, 177 tasi ko'chada, 14 tasi jamoat joyida, 15 tasi ta'llim muassasasi hamda 13 tasi ish joyida yuzaga kelganini aytish joiz. Himoya orderlarining katta qismi er tomonidan xotinga o'tkazilgan zo'ravonlik natijasida berilgan. Keyingi yillarda yana bir holatni kuzatish mumkin, ya'ni qaynonalarga kelinaridan himoyalanish uchun

himoya orderlari berilyapti. Jumladan, bu yil 32 nafar qaynonaga himoya orderi berildi. 57 nafar kelinga esa qaynona tomonidan o'tkazilgan tazyiq tufayli shunday hujat taqdim etildi. Shuningdek, boshqa turli holatlar bo'yicha 499 holatda jabrlanganlarga order rasmiylashtirilgan.

Tazyiq va zo'ravonliklarning 781 tasi jismoniy, 5 tasi jinsiy, 7 tasi iqtisodiy, 930 tasi ruhiy zo'ravonlik, 310 tasi esa tazyiq sirasiga kiradi.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan oiladagi ayolda ruhiy xastalik mavjud. Bu xastalik ham o'z-o'zidan paydo bo'Imagan. To'rtinchi farzandini dunyoga keltirganidan so'ng chaqaloq ko'p yashaymay, nobud bo'ladi. Turmush o'rtog'i Rossiyada bo'lgani bois qaynona har soniada keliniga tazyiq o'tkazib, «O'g'lim kelsa, seni o'ldiradi,

nevaramni nobud qilding» deyishni kanda qilmaydi. Bu gap-so'zlardan so'ng kelining ruhiyatida o'zgarishlar paydo bo'la boshlaydi. Yillar o'tib, o'g'il Rossiyadan kelsa, farzandi nobud bo'lgani kamday, ayolining salomatligi ham haminqadar ekanini ko'radi. Buni qarangki, bu sinovlar o'g'lini sergak torttirmaydi, aksincha, ayolini do'pposlاب alamini oladi.

Ba'zida sog', ba'zida nosog' ayol ham taqdirim shunaqa ekan, deya ko'nib yuravera-di. Buni qarangki, bu oilada ulg'ayayotgan farzandlar ham otasidan ulgi olib, onasini kalaqa qiladi, hatto qo'l ko'taradi. Bu azoblardan charchagan ayol oxiri ichki ishlar organiga murojaat qiladi.

– Ruhiy xasta insonlarning murojaati har doim ham jiddiy qabul qilinmaydi, – deydi Oqdaryo tumani IIB xotin-qiz-

lar masalalari bo'yicha katta inspektori Dildora Eshonqulova. Avvalambor, turmush o'rtog'iga bunday vaziyatda unga qanday chora ko'riliшини aytib, ogohlantirdim. Ayolga himoya orderi berildi. Mahalla va boshqa tashkilotlarning shu oiladagi muhitdan xabardor bo'lishini ta'minladik. Hozircha bu oilada vaziyat yaxshi, lekin ulardan doimiy xabardor bo'lib turish kerak.

Zo'ravonlik masalasi yuza-ga chiqqanda, faqat ayollar erlардан jabr chekadi, deb o'ylaymiz. Ammo qaynonalarga himoya orderlari berilayotgani, kelining zug'umidan qiynalayotgan yoshi ulug' onaxonlarning ko'payayotganini nima bilan izohlashni bilmaysan, kishi.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirlarimiz.
Samarqand viloyati.

ҚАЛАМ — ЎҚЛОГИ, АДАБИЁТ — КЕТМОН БОЗОРИ ЭМАС

Айни кунларда таваллуд топганига 131 йил тўлаётган, ўзининг тарихий мавзудаги бетакрор асарлари билан ўзбек миллий романчилик мактабига асос соглан Абдулла Қодирийнинг қарийб бир аср муқаддам айтган сўзлари бугунги кун ўқувчиси учун ҳам оҳорли кўринади. Гарчанд бу фикрлар адабиёт ва сўз ҳақида, ёш ёзувчиларга йўл-йўрик тарзида битилган бўлса-да, улар сўзни ўз қуроли деб билган журналист ёки ўқитувчи, нотик ёхуд актёр, борингки, халқ билан доимий мулоқотда бўладиган ҳар қандай қасб эгаси учун фойдадан холи бўлмагани боис муштариylаримизга ҳам илиндик.

Таҳририятдан.



Сўз сўйлашда ва улардан жумла тузишда узоқ андиша керак. Тузилган жумлани ёзувчининг ўзигина тушуниб, бошқаларнинг тушунмаслиги катта айб. Асли ёзувчилик айтмоқчи бўлган фикрни ҳаммага баробар англата билишда, орага англашилмовчилик солмасликдадир. Қалам — ўқлоғи, адабиёт — кетмон бозори эмас. Йўсинализ равишида хотирага келган ҳар бир сўздан жумлалар тўқимок фазилат саналмайди. Сўз қолип, фикр унинг ичига қўйилган ғишт бўлсин, кўпчилик хумдонидан пишиб чиққач, янги ҳаёт айвонига асос бўлиб ётсин.

* * *

Ёзувчи турмушни ҳар тарафлама ўрганиши, бунинг учун унинг ҳар соҳаларидан хабардор бўлиши керак. Қисман бошимдан кечирганларим

менинг ёзувчи бўлишимда катта роль ўйнаган. Ҳақиқий ёзувчи бўлишни истаган ёшларимиз ҳам дастлаб шу турмуш ичига киришлари, уни билишлари керак.

* * *

Тарихий романнинг бир яхши хусусияти шундаки, у бир жиҳатдан бадиий асар сифатида китобхонга мароқ беради, иккинчи жиҳатдан ўқувчини бир қадар тарих билан ошна қиласди...

* * *

Ўзбек тили камбағал эмас, балки ўзбек тилининг камбағал дегувчиларнинг ўзи камбағал. Улар ўз нодонликларини ўзбек тилига тўнкамасинлар.

* * *

Ҳамма тил ҳам қўшни тиллардан «қарз» олади. Бусиз иложи йўқ. Асар фақат ўз тилидагина ёзилса шираси, курук чиқади. Ёзувчи ўз ҳалқининг тилини, фольклорини камол ўрганиши шарт ва бир неча тилларни, айниқса, яқин қўшни тилларни билиши фазилат. Шундагина тили боййиди, асари жонланади.

* * *

Китобни тушуниб мутолаа қилиш керак. Баъзан тушуниб мутолаа қилишнинг ўзи кифоя қилмайди. Фикрлар тез унтулиши мумкин. Бундай ҳолларда, айрим зарур фикрларни ёд олиш керак бўлади.

Ёзувчини, гарчи шахсан танилмаса ҳам, асарларини ўқиб, қандай табиатли киши эканини ғойибона билиш, тасаввур қилиш мумкин. Чунки у асарларда асосан ўз табиатини, руҳини тасвирлайди.

МАРВАРИД ФИКРЛАР

Баҳор келганида узоқ қиши бўйи ёпик турган деразалар очилади. Шу деразалардан уйга тоза баҳор ҳавоси киришини англаган инсон – оқил одам, тоза ҳаво Қўёш нурларининг заҳ тортган уйларга ҳаётбахш таъсирини таҳлил қилган инсон – олим одам. Лекин очиқ деразаларда баҳорни соғинган кишининг очган қучоқларини кўрган инсон – шоир одам.

**Эркин ВОҲИДОВ,
Ўзбекистон Қаҳрамони.**

Ўзлиги йўқ одамга тараққиёт муҳим эмас, кун ўтиши муҳим.

**Қозоқбой Йўлдошев,
адабиётшунос олим, педагогика
фанлари доктори.**

Ақл билан мансабга эришиш мумкин. Лекин мансаб билан ақлга эришиб бўлмайди.


**Ўткир ҲОШИМОВ,
Ўзбекистон халқ ёзувчisi.**

ЖАВОБСИЗ САВОЛЛАР

Ихлос билан қуриган дарахтга сув қўйсанг, кўкаради. Нега йўлдан адашган бандалар ўзгаришини хоҳлашмайди?

* * *

Китоб ўқимай қўйсангиз нималар юз беришини биласизми? Аввало, сўз бойлигиниз камаяди. Хотирангиз пасайиб, миянгиз фаол ишламайди. Кейин-чи?!



БУРГУТ, ҚУШЧА ВА ПАШША

Отар тоғдан яловга ҳайдалаётган пайт. Кутилмаганда осмондан бургут шўнғиди, битта қўзичоқни чанглаб кўтартганча кўздан йўқолди. Буни кичкина қушча кўриб турганди. У йўлади: нега мен бургут ишини такрорлай олмас эканман, қўзичоқ нима бўпти, қўчкорни ҳам кўтариб кета оламан. Қушча баландроқ учди, қанотини йиғиб пастга шўнғиди. Воқеа қушчанинг қўчкор шохига урилиши ва ўша заҳоти ўлиши билан якунланди.

– Қаҷондир пашша ҳам тошни юматмоқчи бўлган, – деди чўпон ўлган қушчани қўлига олар экан.

Ўзини бургутга тенглаштирган қушчани, охир-оқибат, пашшага ўхшатиши.

**Расул ҲАМЗАТОВнинг «Менинг Догистоним»
асаридан.**



INSON QADR-QIMMATI – ENG OLIY QADRIYAT

Inson moddiy qiyinchiliklarga chidashi mumkin, lekin nohaqlikka,adolatsizlikka chiday olmaydi. Shuning uchun ham xalqimiz tomonidan «Qornimga emas, qadrimga yig‘layman» degan purma’no naql to‘qilgan. Lekin ayni paytda qadr-qimmatni moddiyatdan butunlay ayro holda ham tasavvur etib bo‘lmaydi.

Shu boisdan ham mamlakatimiz Prezidenti «Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta‘minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta‘lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz», – degan edilar.

Bugungi kunda insonning qadr-qimmati, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash davlatimizning ustuvor vazifasiga aylandi. «Inson qadri uchun» degan hayotbaxsh g‘oya asosida «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan tamoyil joriy etildi.

Ana shu talabdan kelib chiqib so‘nggi yillarda jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekiston inson sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblangan mamlakat bo‘lishi uchun barcha zaruriy chora-tadbirlar ko‘rilyapti. Jumladan, ichki ishlar organlari xodimlari yurtdoshlarimiz tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta‘minlash yo‘lida xizmat qilyapti. Mahalla yettiligi esa aholining muammolarini «xonardonbay» asosda o‘rganib, hal etyapti.

xalq manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilishi to‘g‘risidagi qoida o‘rin olgan. Shuningdek, insonning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat ekanligi ta‘kidlangan. Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko‘paydi.

Buning amaldagi ijrosini aholining kam ta‘minlangan qatlamini ijtimoiy himoya qilish tizimi yaratilganligida ko‘rish mumkin. Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar ko‘rilayapti. Yangi uy-joylar, maktablar va maktabga-



belgilandi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda kompleks dastur ishlab chiqildi. 2025-yilda uni amalga oshirish uchun turli manbalaridan 10 milliard AQSH dollari ajratish rejalashtirilgan. «Bu yil kichik va o‘rtacha biznesga 120 trillion so‘m resurs beryapmiz. Buncha katta mablag‘ ilgari hech qachon bo‘lmagan», – dedi davlat rahbari.

Yurtboshimiz O‘zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigida «Muxtasar aytganda, «Inson qadri uchun, inson baxti uchun!» degan olijanob maqsadni barchamiz birgalikda amalga oshiramiz», degan edilar. Rahbar xodimlariga g‘amxo‘rlik qilsa, malakali mutaxassislarini qadrlasa, bu uning ana shu yuksak maqsadni amalga oshirishga qo‘shgan hissasi bo‘ladi.

Xodim ham o‘z navbatida har tomonlama qulay ish sharoiti yaratgan, qo‘l ostidagilarning ijtimoiy himoyasi haqida qayg‘urgan rahbarni qadrlashi lozim.

O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov inson qadr-qimmati haqida topib yozgan edi. Uning «Izhor» she‘ridagi quydagi satrlarga e’tibor bering-a:



Yurtimizda insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsizligini ta‘minlash, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish eng dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu yo‘nalishda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili, Bolalar ombudsmani, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil va boshqa milliy institutlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Endilikda odamlar tashvishi bilan yashash, xalqimizning qonuniy talab-istiklari va xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanib boryapti. Muayyan hududlar bo‘yicha barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida qabul qilinishi kerak. Mamlakat miqyosida esa ushu jarayonga fuqarolik jamiyatini institutlarini jaib etish xalqchil qarorlar qabul qilishda yaxshi samara beradi.

Mamlakatimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning muqaddimasida O‘zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligi e‘lon qilingan. Asosiy qonunimizdan davlat hokimiyati

cha ta‘lim tashkilotlari qurilyapti, madaniyat va sport maskanlari buniyod etilmoqda. Yurtdoshlarimizning yashash tarzi yaxshilanib, turmushi farovonlashyapti. Yurtimizda yuqori texnologiyali yangi sanoat majmualari, infratuzilmalar va logistika tarmoqlari, avtomobil va temiryo‘llar barpo etilmoqda. Sayyohlik sohalari tobora taraqqiy etmoqda.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilin-gan shaxslarni jamiyatga moslashtirish borasida ham tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ular qayta jinoyat sodir etmasliklari uchun kasbga o‘qitilyapti, ish bilan ta‘minlanyapti, har biriga ijtimoiy yordam ko‘rsatilyapti.

Tadbirkorlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egalari, barkamol bo‘lib tarbiya topishlari uchun ziyor choralar ko‘rilyapti. Xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi kuchaytirilyapti. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari har tomonlama qo‘llab-quvvatlanyapti.


Shu o‘rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyevning 19-mart kuni tadbirkorlar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvida kichik va o‘rtacha biznesni rivojlantirishning ustuvor vazifalari muhokama qilindi. Xususan, 2025-yildagi asosiy maqsadlar

**Qancha diyorlarda sayr etib yurdim,
Qancha manzillarda tuzdim oshyon.
Va buyuk hikmatga axir yuz burdim,
Siyangan joyida azizdir inson.**

**Yurtim, senda ekan nasibam tugal,
Sen o‘zing maskanim, sen o‘zing shonim.
Sen onam, sen singlim, yorimsan, azal,
Ey, jonim, jahonim – O‘zbekistonim.**

Aslida «baxt» va «qadr» tushunchalari egizak. Kimki qadr topsa, u o‘zini baxtli his qiladi. Lekin o‘z Vatanida qadr topmay, begona o‘lkalarda qadrlangan insonning baxti kemtik bo‘ladi. «O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l» deb bejiz aytishmagan. Shuning uchun har kimga ham o‘z diyorida qadr topish nasib etsin.

Bobomurod TOSHEV.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o‘qish uchun
QR-kodni skaner
qiling.

 ҚАТАГОН ҚУРБОНЛАРИ

Исоқул ҳожи Нематулло ўғли 1876 йил Шаҳрисабз вилояти қоровулбегиси хонадонида дунёга келган. У илк таълимни эски мактабда олиб, сўнг Шаҳрисабз ва Бухоро мадрасаларида таҳсилни давом эттириди. Ёшлигидан абжир, ғайратли йигит бўлиб улғайган Исоқул талабалик йилларида Бухорода жадид тараққийпарварлари ғоялари билан танишади. У дунё тараққиётидан ортда қолаётган, қолоқ ва ярим мустамлака ҳолатига келиб қолган Бухоро амирлигида сиёсий ва иқтисодий ислоҳотлар тарафдори бўлган ёшлар ҳаракатига бош қўшди.

МИЛЛАТ ДАРДИ БИЛАН ЯШАГАН

Талабаликнинг сўнгги йилларида дунё кезиб, Ҳажсафарини амалга ошириди. Мадраса имтиҳонларини аълого топшириб, Исоқул ҳожи бўлиб Шаҳрисабзга қайтгач, маҳаллий бек миҳорӯ Абдушукур оғалик томонидан миrzабoshi лавозимиға тайинланади. Исоқул ҳожи Нематулло ўғли бу вақтда ўз вазифаси юзасидан аксар вақтини пойтахт Бухорода ўтказар ҳамда талабаликдаги дўстлари бўлган «Ёш бухороликлар» ташкилоти фаоллари билан дўстона алоқаларини узмасди.

1920 йил Бухорода амирлик тузуми ағдарилгач, Исоқул ҳожи Нематулло ўғли Файзула Хўжаев раҳбарлигидаги «Ёш бухороликлар» ҳуку-

лик ва жиноятчиликка чек кўйди. 1921 йил 30 авгу́стда Ватанга фидокорона хизмати учун фахрий ёрлиқ билан мукофотланди.

Нафақат Бухоро Ҳалқ Республикаси ҳудудида, балки бутун Туркистон минтақаси бўйлаб миллий қаршилик ҳаракати авж олиб кетган бир вақтда Исоқул ҳожи ўзининг тадбиркорлиги билан Қашқадарё воҳасида тинчликни сақлаб турди. Қизил армиянинг турли ҳийла-найранглар билан аҳолини талон-торож қилишига йўл бермади. Айни пайтда маҳаллий қуролли гурӯҳлар билан ҳам муроса-мадора йўлини топди. У 1923 йил ноябрдан Шаҳрисабз вилояти Давлат сиёсий бошқармаси

1925 йил Қашқадарё вилояти ижроқўм раиси Аҳмаджон Аминжонов Исоқул ҳожини чақириб олиб, уни Шаҳрисабз шаҳар милиция бўлими бошлиғи лавозимиға тайинлайди. Тажрибали раҳбар беш-олти ой ўтмай, ҳалққа осойишта турмушни қайтаради. Албатта, бу айрим кимсаларга ёқмас эди. У «собиқ амир амалдори, маҳаллий таъсирга эга инсонлардан, Шаҳрисабз милициясида бир ходимни урган», деган айбловлар билан қамоқقا олинади. Бироқ бу тұхматни эшитган сафдошлари зудлик билан ўз норозиликларини билдиради. Унинг қўл остида ишлаган милиция ходимлари 40 киши имзоси билан шаҳодатнома тайёрлаб,


лан Исоқул ҳожини 8 йилга қамоққа ҳукм этишади. У фақат 1927 йилда Ф.Хўжаев ёрдами билан Каттақўрғон турмасидан озод бўлишга эришади.

Бироқ орадан ўн йил ўтиб яна Исоқул ҳожи Нематулло ўғлини қамоққа олиш бўйича ордер берилади.



1937 йил 15 ноябрядаги айблов баённомасига асосан, Исоқул ҳожи «Миллий иттиҳод» аксилиңқилобий ташкилот аъзоси, Ота Хўжаевнинг топшириғи билан босмачиларга ёрдам берган, 1923–26 йиллар Шаҳрисабзда Шодибек Хўжақулов бошлиқ аксилиңқилобий ташкилотга аъзо бўлган ва Тангриберди додхоҳга кўмаклашган, 1936 йил июнда давлат заёмига қарши аксилиңқилобий тарғибот олиб борган, бу давлат факат олади, ҳалққа ҳеч нарса бермайди, деб ҳукumatни сўккан» каби бўхтонлар асосида айланди. У 1937 йил 28 ноябряда машъум «учлик» қарори асосида ЎзССР ЖКнинг 66-моддаси 1-қисми билан 10 йил концлагерга ҳукм этилди ва жазо муддати 1937 йил 13 октябрдан белгиланди.

У собиқ иттифоқ Олий Совети Президиумининг



1989 йил 16 январдаги «30–40-йиллар ва 50-йиллар бошларида қатағон қурбонлари бўлган кишиларни оқлашда адолатни таъминлаш тўғрисида»ги қарори асосида ЎзССР прокуратураси томонидан киритилган протест билан 1990 йил 26 февралда оқланди. Бироқ интизор кутган фарзандларига бу хабарни айтиш ҳеч кимнинг хаёлига келмади.

Хулоса шуки, қалби имон, ҳалқига муҳаббат ва шафқат билан билан тўлган Исоқул ҳожи Нематулло ўғли ҳар қандай ҳолатда ҳам, ўз маслагига содик қолди. Гарчи қўлида қурол ва мансаб ваколатлари чексиз бўлса ҳам, доим босиқ бўлди. Бир гал бўлсин виждонига қарши бормади, бегуноҳ инсонларга ўқ узмади. Ҳатто айбордорлиги исботланган одамлардан ҳам ўз шафқату мурувватини аямади.

Исоқул ҳожининг наутираси Илҳом ҳожи Раупов биз билан суҳбатда қуйидагиларни ҳикоя қиласди. «Ҳайит байрами куни у кишини олиб кетиб отишган экан. Мен 2016 йил Каттақўрғонга бориб Эргашота жоме масжидида ёши улуғ кишилар билан суҳбатда бўлдим. Кексаларнинг айтишича, ўша машъум йилларда махфий объектларда отиб ташланган кишилар Каттақўрғон шахри атрофида бўлган олтита қадимий чуқур қудуққа ташланиб, сўнг бу қудуқларни ҳам кўмиб юборишган экан».

**«Тарих: хотира,
хулоса ва сабоқлар»
китобидан
қисқартириб олинди.**



матига ишга кирди. Аввалига Чироқчи кентида инқилобий қўмита раиси, сўнг ижроқўм раиси лавозимларида иш олиб борди. 1921 йилда эса Шаҳрисабз вилояти милиция бошлиғи вазифасига тайинланади.

У қисқа муддатда вилоятда ҳалқ осойишталигини таъминлаб, талон-торож-

бошлиғи этиб тайинланади. Бу вақтга келиб Бухоро Республикасида амалдаги ҳокимиятни қўлга олган большевиклар Исоқул ҳожига эркин ишлашга имкон бермади. Аксинча, турли хил фитналар билан унинг ишига ҳалақит бера бошлайди. Натижада у ўз ишини ташлаб кетишга мажбур бўлади...

унда Исоқул ҳожининг ўз ходимларига нисбатан ҳар доим яхши муомалада бўлгани, уларга ўғлим, укам, деб мурожаат қилгани ва ҳаммага ғамхўр устоз бўлиб, доимо ёрдамга шай бўлганини ёзишади. Шундан сўнг 1925 йилнинг охирида Тангриберди додхоҳга ёрдам берган, деган янги айблов би-





Урок духовности и просвещения

ЧЕСТЬ И ДОСТОИНСТВО ЧЕЛОВЕКА – ВЫСШАЯ ЦЕННОСТЬ

«С первых дней наших реформ мы определили честь и достоинство человека высшей ценностью нашего общества».

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

Узбекистан уверено идет по пути обновления и прогресса. Во всех сферах осуществляются масштабные реформы, в основу которых положен принцип «человек – общество – государство».

В соответствии с обновленной Конституцией на первый план выходит обеспечение прав и интересов каждого соотечественника независимо от национальности, языка и религии. Все больше утверждаются благородные ценности дружбы и согласия, высокой нравственности, стремления к просвещению. Люди глубже осознают, что мир и стабильность в стране – самое большое богатство, активно участвуют в сохранении этого бесценного достояния, укрепляя атмосферу равенства и толерантности.

Узбекистан, закрепивший в Основном законе статус социального государства, проводит народную и ориентированную на человека политику. Реформы служат улучшению качества жизни граждан, обеспечению их прав и свобод. Только в минувшем году нуждающимся в поддержке была оказана материальная помощь и выплачены пособия на 16 триллионов сумов. 51 тысяча детей из малообеспеченных семей устроены в детские сады, 176 тысячам членам малообеспеченных семей оказана необходимая медицинская помощь, 182 тысячи – охвачены социальными услугами. Через фонд «Саховата кумак» около 94 тысячам семей компенсированы расходы

на лечение, продукты питания, одежду, коммунальные платежи на 130 миллиардов сумов. 3,5 миллиона женщин получили помощь по линии «женской тетради». 1 миллиону 300 тысячам молодых людей оказана социальная помощь на 1 триллион 700 миллиардов сумов.

В центре внимания – развитие и поддержка предпринимательства. Реализуются меры по выведению малого и среднего бизнеса на лидирующие позиции в создании ВВП, организации новых рабочих мест. Указом Президента «О мерах по повышению роли малого и среднего бизнеса в экономике» от 19 марта 2025



центров, в обеспечении занятости населения – до 75 процентов. Внедряется принцип «Первая

мания – получение глубоких знаний и освоение профессий девушкиами, расширение охвата их высшим образованием. Соотечественницам, обучающимся в вузах, техникумах, колледжах, предоставляются беспроцентные образовательные кредиты. Установлен порядок, согласно которому государство покрывает расходы на оплату контрактов женщин, обучающихся в магистратуре. Подчеркивая значимость этой деятельности, глава государства отметил: «Как говорили великие умы древности, если выучить сына – образованным будет один человек, если выучить дочь – образованной станет вся семья, все общество».

В стране уделяется особое внимание вопросам дальнейшего повышение прозрачности государственного управления, совершенствованию судебно-правовой системы. Внедрены этические стандарты к профессиональному поведению госслужащих, принят Кодекс профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников органов внутренних дел. Налажена работа электронных порталов правительенных решений «E-qaror», общественного обсуждения законопроектов «regulation.gov.uz» и др. Эти и иные меры служат совершенствованию механизмов открытости деятельности госорганов, утверждению принципов верховенства закона.

Новый Узбекистан – страна, где высшая ценность человек, его честь и достоинство, где каждый человек чувствует себя защищенным, а его права надежно обеспечиваются государством.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.



года предусмотрено доведение их доли в ВВП до 55 процентов, в промышленности – до 34 процентов, в экспорте – до 34 про-

возможность», в рамках которого для малого бизнеса предусмотрен ряд преференций. Государство оказывает всемерную поддержку субъектам «зеленой» экономики, что способствует развитию экологически чистых производств, созвучно идеям программ устойчивого развития, реализуемых во имя будущих поколений.

В построении Нового Узбекистана велико значение системы качественного образования. Как подчеркнул Президент Шавкат Мирзиёев, «ключ, открывающий все двери, – это образование и воспитание». Узбекистан взял курс на реформирование сферы на основе передового мирового опыта. Сегодня в стране функционируют филиалы крупнейших зарубежных вузов, создаются условия для реализации молодежью своего потенциала, в том числе посредством фонда «Эл-юрт умиди». В центре вни-



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

KINOLOGIYA

O'ROLBOYNING SADOQATLI DO'STLARI

...Fevral oyi boshlari. Toshkent viloyati IIBB Navbatchilik qismiga Angren shahridagi xonadonlarning birida giyohvandlik moddalari saqlanayotgani to'g'risida xabar kelib tushdi. Tergov-tezkor guruhi tarkibida manzilga yetib borgan viloyat IIBB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi 2-mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi kichik inspektori, safdar O'rolboy Muhammadjonov «Balu» laqabli xizmat iti bilan «zahri qotil»ni topishga kirishdi. Hovlining u-bu joyini ko'zdan kechirgan jonivor darhol o'tin taxlab qo'yilgan joyga yugurdi. U yerni bir-ikki marta paypaslagach, yelim idishga solib ko'mib qo'yilgan «zahri qotil»ni topdi.

Itning ziyrakligiga shohid bo'lgan xonadon egasi yashirish foydasiz ekanligini anglab, uy ichiga berkitib qo'yan bosqqa giyohvandlik vositalarini ham olib chiqib, osoyishtalik posbonlariga taqdim etdi...

Bu kabi voqealar lavhamiz qahramonining xizmat faoliyatida ko'p uchrab turadi. Jumladan, bиргина

oshishida mustahkam poydevor bo'ldi.

To'rt yil davomida ikki joni-vorni tarbiyalagan fidoyi xodim muntazam mashg'ulotlar olib borib, ularning chinakam do'stiga aylandi. Shu bilan birga, tajribasini boyitib, yutuqlar sari dadil odimlay boshladi. Xususan, o'tgan yili yurtimiz kinologlari o'rtaasida



joriy yilning o'tgan davrida o'ziga biriktirilgan xizmat itlari yordamida o'g'rilik va giyohvandlikka doir 4 ta jinoyatni «issiq izida» fosh etishga muvaffaq bo'ldi.

– Sadoqatli do'stlarimning biri giyohvandlik moddalarni izlab topishda, ikkinchisi iz qidiruv yo'nalihsida qobiliyatini namoyon etib kelmoqda, – deydi safdar O'.Muhammadjonov. – Ularning beminnat xizmati tufayli jinoyatchilikni jilovlashga hissa qo'shib kelyapmiz.

To'qqiz yildan buyon ichki ishlar organlarida faoliyat olib borayotgan O'rolboy Muhammadjonov ilk xizmatini Angren shahar IIB Qo'riqlash xizmati militsioneri lavozimida boshlagan. So'ngra vaqtinchalik saqlash hibxonasida faoliyatini davom ettirgan. Ana shu davr mobaynida ustozlari tomonidan berilgan kasbga oid bilim va ko'nikmalar yosh xodimning malakasi

Surxondaryo viloyatida o'tkazilgan ko'pkurash musobaqasida «Reks» bilan portlovchi moddalarni izlab topish yo'nalihsida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Kelgusida ofitser bo'lishni astoydil ahd qilgan O'rolboy oliv ta'lif muassasasida sirtdan tahsil olish barobarida o'z ustida izlanishdan, bilimini boyitishdan sira charchamaydi. Xizmatdan bo'sh paytlarida basketbol bilan shug'ullanadi, badiiy asarlarni sevib mutolaa qiladi. Uning turmush o'rtog'i Gavhar Ahmataliyeva ham oliv ma'lumotli mutaxassis bo'lish uchun tahsil olmoqda. Jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shish bilan birga, oilani muqaddas qo'rg'on deb bilgan bu juftlik hozirda 4 nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda.

**Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.**

Toshkent viloyati.

QAROR VA IJRO

Prezidentimizning joriy yil 3-yanvardagi «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosi bo'yicha Qarshi va Nishon tumanlarida amalga oshirilgan ishlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda viloyat IIB boshlig'i va uning o'rinosarlari, sohaviy xizmatlari rahbarlari, profilaktika inspektorlari ishtirok etdi.

SAMARADORLIKNING MUHIM OMILI



Yig'ilishda o'tgan davrda har ikki tumanda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, kriminogen vaziyatni jilovlash, «qizil» toifadagi mahallalarda jinoyatlarni erta aniqlab, oldini olish borasida ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar atroflicha tahlil qilindi.

Yig'ilish davomida fuqarolarning qonuniy manfaatlarini munosib himoya qilish, jinoyatlarning barvaqt oldini olish, sodir etilganlarini izi sovimay fosh qilish, jamoat xavf-



Qayd etildiki, Qarshi tumanida «mahallabay», «xonadonbay», «fuqarabay» ishlash tizimi bo'yicha tashkil etilgan profilaktik tadbirlar natijasida joriy yilning o'tgan davrida 58 ta mahallaning qariyb 83 foizida kriminogen vaziyat barqarorligi ta'minlandi. Qolgan mahallalarda esa jinoyatlar kamayishiga erishildi. Lekin hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjudligi sababli ushbu mahallalar «qizil» toifada qolayotgani aytildi. Nishon tumanida esa mavjud 40 ta mahallaning 2 tasi «qizil», 4 tasi «sariq» toifada qolayotgani qayd etilib, muammolarga yechim topish, fuqarolar bandligini ta'minlash, ayollar va yoshlar bilan

sizligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar talab darajasida emasligi ta'kidlandi. Yakunda esa mas'ullarga xizmat davomida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, har ikki tumanning «qizil» toifadagi mahallalarida ijtimoiy profilaktikani kuchaytirish, hududagi ta'lif muassasalari, ko'chalar va boshqa aholi gayrum joylarda, shuningdek, jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan manzillarda videokuzatuv moslamalarini o'rnatish, «Namunali xavfsiz ko'cha» va «Namunali xavfsiz yo'lak»larni tashkil qilish kabi vazifalar yuklandi.

**Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.**
Qashqadaryo viloyati.

■ Самаркандская область

ОН ЗНАЕТ КАЖДОГО

Эффективная профилактика – это когда инспектор знает жителей своего участка лично. Так считает майор Олим Джуракулов, посвятивший более 15 лет службе в органах внутренних дел.



Профессиональную деятельность в качестве инспектора профилактики Олим Джуракулов осуществлял в махаллях Самарканда и Каттакурганского района. В последние два года зона его ответственности махалля Куксарой, расположенная в самом центре древнего города. Здесь – областная администрация, несколько вузов, банки, жилые дома.

– На территории махалли проживает 2 250 человек, – рассказывает майор. –

Есть конфликтные семьи и ранее судимые лица. Чтобы обеспечить безопасность, необходимо знать ситуацию в каждой семье, держать на контроле тех, кто ведет асоциальный образ жизни. Только так можно предупредить преступления.

Особую тревогу у инспектора вызывают квартиры и дома, где собираются люди, злоупотребляющие спиртным. С начала года уже семь таких жителей махалли направлены на

лечебие и взяты на учет в областном наркологическом диспансере.

Преодолевать сложности службы майору помогает поддержка семьи.

– Это мой надежный тыл, – говорит он. – После тяжелого дня меня ждут супруга Фарида, сын Бехруз и дочь Парвина. Их понимание – лучшая награда за все старания.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

■ Ташкентская область



Цель общенационального проекта «Яшил макон» – посадка ежегодно 200 миллионов саженцев деревьев, кардинальное расширение площади зеленых насаждений.

В благородное дело достойный вклад вносят сотрудники органов внутренних дел.

Личный состав подразделений ГУВД Ташкентской области озеленяет территорию, прилегающую к автотрассе «Ахангаран–Ташкент». Аналогичная работа ведется и в районных, городских ОВД, махаллях.

Соб. корр.



■ Кашкадарьинская область

ВЫЕЗДНОЙ ПРИЕМ В ДЕХКАНАБАДЕ

В Дехканабадском районе состоялся выездной прием по обращениям женщин. Озвученные вопросы рассматривала рабочая группа во главе с заместителем хокима Кашкадарьинской области. В состав группы вошли также представители областных управлений внутренних дел, юстиции, образования и здравоохранения, центра социальных услуг «Инсон», районного хокимията и общественных советов «Оқила аёллар».



Прием прошел в здании детской школы музыки и искусства № 5.

По обращениям жертв насилия и притеснений приняли меры сотрудники УПП СОБ УВД области и профильные специалисты других ведомств. Женщинам оказана правовая и психологическая помощь, проведены консультации с применением методов медиации, выданы охранные ордеры.

Особое внимание уделено вопросам улаживания семейных конфликтов. В ходе работы специалисты разобрали причины бытовых споров в шести семьях.

Хокимом Дехканабадского района Шерзодом Шокировым были приняты оперативные меры по решению ряда проблем. По вопросам, требующим дополнительного рассмотрения, даны поручения ответственным лицам.

Выездные приемы позволяют эффективно решать злободневные социальные проблемы, обеспечивая поддержку тем, кто в ней нуждается.

Замира РУСТАМОВА,
подполковник.



SIFAT NAZORATI – BIRINCHI O'RINDA

Go'sht aholi iste'mol qiladigan mahsulotlar ichida oqsilga boy va foydalisi sanaladi. Shu bois uni sotib olayotganda sifatiga alohida e'tibor berish zarur. Ammo ushbu mahsulotlarning sifati, bozorlardagi sanitariya va epidemiologik vaziyat hamma joyda ham bir xil emas.



– Viloyatimizning barcha hududlaridagi dehqon bozorlari va savdo majmualarida targ'ibot-tushuntirish ishlarini muntazam olib boryapmiz, – deydi viloyat IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini tashkil etish guruhi komandiri, leytenant Muslimjon G'opurov. – Masalan, veterinariya-sanitariya talablariga riyoq qilgan holda savdo faoliyatini olib borish, oziq-ovqat mahsulotini iste'molga yaroqlilik to'g'risidagi laboratoriya xulosasi berilganidan keyin savdoga chiqarish, sotuvchilar doimiy ravishda tibbiy ko'rirkdan o'tishi kerakligini qayta-qayta eslatishga harakat qilyapmiz.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-maydag'i «Ixtisoslashirilgan so'yish korxonalarini faoliyatini tartibga solish hamda iste'mol bozoriga go'sht va go'sht mahsulotlarini yetkazib berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida viloyat aholisini sifatlari va ekologik toza go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan bir qancha ishlar amalga oshirilayapti. Masalan, yaqinda Beshariq tuma-

nining «Rappon» mahallasida veterinariya-sanitariya talablariga to'liq mos keladigan zamonaviy so'yish kompleksi ish faoliyatini boshladi. Bu kompleksda veterinariya vrachi doimiy ravishda xizmat faoliyatini olib boradi. Chorva hayvonlarini klinik ko'rikdan o'tkazishdan torrib, so'yib, tindirib, hududlardagi qassobxonalarga olib chiqib ketgunga qadar bo'lgan jarayonlar mutaxassislar nazoratida bo'ladi. Bunday komplekslarning ochilishi iste'molchilar sog'lig'ini himoya qilishga, viloyat hududida oziq-ovqat xavfsizligini samarali kafolatlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda mutaxassislar aholiga murojaat qilib, bozor va savdo rastalaridan oziq-ovqat mahsuloti, xususan, go'sht sotib olayotganda uning sifatiga, yaroqlilik muddatiga va bu borada berilgan laboratoriya xulosasiga e'tibor berishni, sotuvchilardan buni talab qilishni maslahat beradilar.

**Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.**

Farg'onan viloyati.



GIYOHVANDLIK – UMR ZAVOLI

OG'UFURUSH QO'LGA TUSHDI

Navoiy viloyati IIB TQX JQB Giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish bo'limi xodimlari tomonidan muntazam ravishda targ'ibot ishlari olib borilyapti. Shu bilan bir qatorda nazorat reyd tadbirlari ham tashkil etilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad – giyohvandlikni oldini olish, zahri qotil savdosiga chek qo'yish.

Xatirchi tumanida o'tkazilgan tezkor tadbirlarning birida «Yangirabod» YPX maskanida «Spark» avtomashinasining ikki yo'lovchisi xo-

dilarda shubha uyg'otdi. Tekshirib ko'rildanida, ularning yonida selofan xaltaga joylangan vazni 56.64 grammni tashkil etuvchi marixuana giyohvandlik vositasi topildi.

Samarqandlik, 60 yoshni qoralayotgan fuqaro muqaddam bir necha bor sudlangan. Shunga qaramay ayrim tanishlarini giyohvandlik domiga tortib, hatto og'u «savdo»siga sherik qilib ulgurgan. Tezkor surishtiruvlar natijasida mazkur zahri qotilni Nurota tumanida yashovchi shaxsdan olganligi ma'lum bo'ldi. Tezkor tadbir davom ettilib, 71 gramm marixuanani navbatdagi xaridoriga 250 AQSH dollarini va 1 mln so'mga sotayotgan

paytda, nurotalik og'ufurush ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

Ushbu fuqaroga tegishli xonodon va uning omborxonasi ko'zdan kechirilganda, jami 1 kg 104 gramm marixuanna, 3 kilogrammu 260 gramm quritilgan ko'knor hamda 85 gramm kannabis saqlab kelinayotganligi aniqlandi. Yuqoridagi holatlar yuzasidan jinoyat ishlari qo'zg'atilib, hozirda dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

**Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.**

Navoiy viloyati.

Qo'shko'pir tumani IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishslash guruhi xodimlari og'ir ijtimoiy ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini nazorat qilish, jinoyat va huquqbazarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish bo'yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirishmoqda.

O'SMIR KO'CHA BOLASIGA AYLANMASIN

Mahallalar, ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan targ'ibot uch-rashuvlarida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yoshlarni yot ta'sirlardan himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilyapti. Mavzuga oid ko'rgazmali adabiyotlar va videoroliklardan samarali foydalanim, ushbu salbiy hodisalarning ayanchli oqibatlari o'quvchilarga yetkazilmoqda. Muhibimi, o'smirlarning bu boradagi fikr-mulohazalari ham tinglanib, munosabatlari tahlil qilinyapti.

Yoshlar ta'lim-tarbiyasida ottonalarning mas'uliyatini oshirish g'oyat muhim. Shu bois bu yo'nalishdagi targ'ibot tadbirlari ham mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borilyapti.

– Joriy yilning o'tgan davrida farzandlariga ta'lim-tarbiya berish borasidagi majburiyatlarni lozim darajada bajarmagani uchun 123 nafar shaxsga nisbatan mamuriy bayonnomalar rasmiylashtirildi, – deydi guruh katta inspektori, kapitan Shuhrat Karimov. – Tungi

vaqtida ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarsiz ko'ngilochar maskanlarda voyaga yetmaganlarning bo'lishiga yo'l qo'ygan 2 nafar shaxs ham tegishli tartibda javobgarlikka tortildi. Qarovsiz va nazoratsiz yurgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan 12 nafar bola esa viloyat IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirildi. Hamkorlikdagi profilaktik tadbirlar natijasida joriy yilda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir qilinishiga yo'l qo'yilmadi.

Voyaga yetmaganlar va yoshlar tarbiyasi doimiy jiddiy e'tibor talab qiladigan muhim vazifa. Shu bois oila – maktab – mahalla hamkorligini yanada rivojlantirib, yoshlar jamiyatda o'z o'rnini topishiga amaliy yordam berishimiz lozim. Toki, hech bir o'smir ko'cha bolasiga aylanib qolmasin.

**Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.**

Xorazm viloyati.




XIZMATLARDA

TURNAQATOR NAVBATLAR TURNALARDEK TEZ KELAR

Guliston tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi inspektori, kichik serjant Baro Karimova qabuliga kelgan yosh-yalanglar, otaxon-u onaxonlarga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lib, ularning ishini tezda bajarishga shoshiladi. Qushdek uchib harakat qilganidan navbat tezlashadi. Birin-ketin unga rahmat aytib, minnatdorlik bildirib ketayotganlarini ko'rganida o'zi ham xuddi yangi pasport olganday chuqur entikadi...

Lavhamiz qahramoni 1997-yilda Guliston tumanida tug'ilgan. Otasi Sirdaryo viloyati prokuraturasida, akasi xavfsizlik organlarida ishlaydigan Baro yoshlidan osoyishtalik posboni bo'lismi orzu qilib ulg'aydi. Maktabni tugatgach, Samarcand davlat universitetida tahsil oldi. Olygohni tamomlab, ichki ishlar organlarida xizmat faoliyatini boshladi. Dastlab Mirzaobod tumani IIB M va FRBda inspektor lavozimida ish boshlagan Baro o'tgan yildan beri Guliston tumanida ushbu vazifada ishlab kelmoqda. Ishiga mas'uliyat bilan yondashadi, bilmaganini so'rashdan tortinmaydi, o'rganishdan charchamaydi.

— Men uzoq «Oqoltin» mahallasidan ID-karta olishga kelgandim, — deydi Mahzuna Mo'minova. — Rosti, pasportni almashtirish uchun turnaqator bo'lib navbatda turganlarni ko'rib bugun ololmasam kerak, deb o'yagandim. Yo'q, ishim tez bitdi. Bu ochiq chehrali, xushmuomala inspektor qizning «Opa, bir necha soatdan keyin ID-kartangizni olasiz», deganiga ishonmagandim. Uning xushmuomalasi bois, bir necha soatlik kutish ham deyarli bilingani yo'q. Umridan baraka topsin.



Kichik serjant B. Karimova bo'sh vaqtida sport bilan shug'ullanadi. Ayniqsa, voleybol uning jon-u dili. Bir necha bor sovrindor bo'lgan viloyat IIB terma jamoasining a'zosi. Hozirgi paytda u O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida tahsil olmoqda. Kelgusida yetuk huquqshunos bo'lismi o'z oldiga maqsad qilgan qahramonimiz o'z maqsadi yo'lida muvafqaqiyatlarga erishishiga shubha yo'q.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.**

Sirdaryo viloyati.

QILMISH – QIDIRMISH

CHUV TUSHGAN MARDIKORLAR

**Poytaxtimizdagи
«Chorsu» dehqон
bozori yонидаги бир
марталик исб билан
та'minlash markazi.
Ishga chiqqanlar
kimdir kelsa, «zuv» etib
yugurib borishadi. Bir-
ikki nafar mardikor исб
beruvchi bilan ketadi,
qolganlar esa yana
o'z joylariga qaytib,
kutishda davom etadi.**

Taxminan soat 12:00 larda yoshi 30 larni qoralab qolgan Tursunpo'lat (ism-shariflar o'zgartirildi) shu yerda paydo bo'ldi. Tabiiyi, bir zumda uning atrofiga ham mardikorlar yopirilib keldi. Birozdan so'ng O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi Farruxbek va uning sherigi bilan Toshkent viloyati Keles shahridagi issiqxonalaridan birida pomidor mahsulotini terib, ularni yuk avtomobiliga ortib berish evaziga 200 ming so'mdan haq to'lashga kelishiladi.

Ular taksi to'xtatib, aytilgan manzil tomon yo'l olishadi. Mashina Yunusobod tumani 4-mavzeda joylashgan avtosalon yonidan o'tib ketayotgan payt Tursunpo'lat haydovchiga to'xtashni va Farruxga uyali aloqa vositasini kim bilandir

gaplashib olish uchun berib turishini aytadi. Uyali aloqa vositasini olib, mashinadan tushib, sekin-asta uzoqlasha boshlaydi. Keyin yugurgancha «quyonning rasmini chizadi». Bechora yollanma ishchilar hay-haylagancha, uning ortidan quvishadi. Lekin Tursunpo'lat bir zumda g'oyib bo'ladi.

Osongina qo'liga kiritilgan «Samsung 55A» rusumli uyali aloqa vositasi «Chilonzor» metro-

li» tumanida joylashgan «O'zgarish» metro bekati oldida-gi mardikor bozoriga keladi. U yerda to'rt nafer ishlovchining ishonchiga kirib, ularga ham go'-yoki Toshkent shahri Chilonzor tumanida joylashgan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi oldida turgan yuk avtomobilidan 10 tonna kartoshkani boshqa yuk avtomashinasiga yuklab berishlarini aytadi. Xizmat

po'lat o'z hisobidan ovqatlantirishi aytilib, yollanma ishchilardan biri – Erkindan «Samsung A35» rusumli uyali aloqa vositasini gaplashib turish uchun oladi. Oradan ozroq vaqt o'tganidan keyin, ikkinchi ishchi – Zafardan «Itel A 70» rusumli uyali aloqa vositasini olib, go'yoki tanishiga telefon qilib olishini aytib, ularning ko'zini shamg'alat qilib, voqeja joyidan qochib ketadi.

«Chilonzor» metrosi yonidagi telefon sotuvchilarga «Samsung A35»ni 800 ming so'mga va «Itel A 70»ni esa 700 ming so'mga sotib, pullarini o'z ehtiyojlari uchun ishlatis yuboradi.

Jabrlanuvchilarning murojaati yuzasidan olib borilgan tezkor-qidiruv natijasida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan Tursunpo'lat To'raqulov qo'iga olindi. Guvoh-larning ko'rsatuvlari va ashyoviy dalillar qarshisida u barcha ayblarini tan oldi.

Birovning moli boshqaga bu-yurmasligi yana bir bor o'z isbotini topdi. Halol mehnat evaziga pul topish ilinjida bozorga chiqqan mardikorlarni chuv tushirgan qallob odil sud tomonidan tegishli jazoga tortildi.

**Nilufar JANIYEVA,
mayor.
Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.**

Toshkent shahri.



si oldidagi telefon sotuvchilarga 1 million so'mga sotib yuboriladi. Pullari esa qallobning jig'ildonidan osongina o'tib ketadi.


Birovning haqi evaziga kun ko'radigan bezbet endi «Serge-

haqini har biriga 150 ming so'm miqdorida kelishib, ular bilan yo'liga chiqadi.

Beshovlon ish boshlashdan oldin biroz tamaddi qilib olish maqsadida kafega kirishadi. Tursun-

Женщины в погонах

Героиня очерка капитан Гавхар Абдиева после окончания Ташкентского государственного педагогического университета готовилась поступать на Высшие курсы по подготовке сержантского состава Академии МВД Республики. Подготовка к вступительным испытаниям шла под руководством отца. Гавхар с удовольствием вспоминает, как вместе с папой бегала, подтягивалась на турнике, искала ответы на вопросы по теории и истории государства и права. Девушка успешно сдала экзамены. Окончила курсы с отличием, после чего была принята на должность инспектора в тогда еще Информационный центр ГУВД г. Ташкента.



Ее наставниками стали инспектор сержант Эльвира Салиева и начальник отдела майор Инна Пак. Они обучили ее тонкостям профессии.

В зарождении у Гавхар интереса к сфере правоохраны есть заслуга и ее дедушки Ражаба Эшматова, который долгие годы служил участко-

вым инспектором в ОВД города Джизака.

Сегодня старший специалист Центра правовой статистики и оперативного учета ГУВД столицы капитан Гавхар Абдиева ведет учет всех видов преступлений, зарегистрированных в 12 районах столицы, анализирует процесс от возбуждения уголовного дела до его передачи в суд, готовит ежемесячные, квартальные и годовые отчеты. Работа ответственная.

Дома Гавхар прикладывает все силы, чтобы царили мир и спокойствие. Большое внимание уделяет воспитанию сына Мухаммадамина. Она хочет, чтобы он вырос достойным человеком, приносящим пользу обществу. Светлые устремления – ее путеводная звезда.

Соб. корр.

Из следственной практики

УШЕЛ, НЕ ОБЪЯСНИВ ПРИЧИНЫ

Заглянув в выдвижной ящик прикроватной тумбы, Сергей (здесь и далее имена изменены) потянулся к припрятанному конверту, в котором с недавних пор хранил сбережения. Из месяца в месяц он откладывал деньги на осуществление давней мечты – покупку автомобиля.



Уже держа конверт в руках, он почувствовал, как тот значительно полегчал. В груди екнуло. «Опять? Сколько это будет продолжаться?» – подумал Сергей и тихо выругался. Открыв конверт, пересчитал купюры. Да, чутье не обмануло – на этот раз он не досчитался более крупной суммы.

Терпение Сергея было на пределе, гнев захлестнул его. Поднявшись с кровати, он решительно направился в комнату старшей сестры. За несколько недель до этого события, стараясь не втя-

гивать сестру в неприятности, он уже поговорил с ее гражданским мужем. Сергей открыто обвинил Алишера (так звали мужа сестры) в причастности к пропаже небольших сумм денег из его комнаты. В голосе Алишера звучали нотки обиды и даже угрозы, когда он произнес: «Я здесь ни при чем, спроси у своей жены. Я достаточно зарабатываю, мне не нужны твои деньги». Его слова успокоили Сергея на некоторое время, но мысль о причастности мужчины осталась...

Забежав в комнату сестры, Сергей с негодованием воскликнул: «Где он? Зачем ты связалась с ним и привела в дом?» В этот момент он заметил, что глаза сестры полны слез. Она рассказала: днем Алишер объявил, что им следует расстаться. Она умоляла его объяснить причину, но тот поспешно покинул квартиру. Сестра несколько раз пыталась до него дозвониться, однако оператор упрямо повторял фразу: «Телефон абонента выключен...» Выслушав сестру, Сергей рассказал ей о пропаже денег, своих подозрениях. Причина столь поспешного ухода мужчины стала ясна. Сергей обратился с заявлением в правоохранительные органы.

Уже во время следствия брат с сестрой узнают, что Алишер был судим за аналогичные преступления. Общая сумма ущерба составила 6 млн сум и 1400 долларов США.

По данному факту СО при УКД ОВД Мирабадского района было возбуждено уголовное дело. Приговором суда 27-летний Алишер признан виновным в совершении преступления. Ему назначено наказание в виде лишения свободы сроком на пять лет и один месяц.

Соб. корр.



РАСКРЫТА СЕРИЯ КРАЖ

10 февраля 2025 года житель Мархаматского района Андижанской области К. Т. сообщил в ОВД о том, что из его автомобиля марки «Газель» неизвестные похитили 799 тысяч сумов.

Экспертом следственно-оперативной группы при осмотре автомобиля были обнаружены отпечатки пальцев. Они принадлежали жителю Булакбашинского района И. С.

В ходе следствия установлено, что в январе И. С. украл 10 370 000 сумов из автомобиля марки «Дамас», принадлежащего Т. Х., в феврале – 4 785 000 сумов из автомобиля «Дамас» С. А., 7 260 000 сумов из автомобиля «Дамас» Р. С., 5 342 000 сумов из автомобиля «Газель» Х. Г.

Украденные деньги мужчина потратил на личные нужды.

 SHUNDAY XIZMAT BOR

AHOLI SALOMATLIGINI KO'ZLAB

Sarlavhani o'qib, hoynahoy «Gap shifokorlar haqida boryapti», deb o'ylagan bo'lsangiz kerak. Lekin ichki ishlar organlarida ham bu haqda qayg'uradigan xodimlar bor. Bular karantin xizmati vakillaridir.

Bozorlar va do'konlarda so'tilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatlari, sanitariya talablariga to'liq javob beradigan darajada bo'li-shi shart. Navoiy viloyati IIB JTSB Karantin tadbir-larini ta'minlash guruhi xodimlari iste'molga yaroq-siz mahsulotlarni sotayotgan shaxslarga nisbatan qonunda belgi-langan choralar ni ko'rishi yapti. Bundan tash-qari, oziq-ovqat



mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanayotgan shaxslar hamda xaridorlar o'rtasida targ'ibot ishlari olib borishmoqda.

— Ayniqsa, sifatsiz mol go'shtlari, sut va sut mahsulotlari iste'molchilarining sog'lig'iga jiddiy zarar yetka-zishi mumkin. Afsuski, ularning barchasi ham xarid vaqtida mahsulotning iste'molga yaroqligini tasdiqlovchi hujjatlarni so'rayvermaydi, ko'pchilik xaridorlar bu masalada e'tiborsizlik qilishadi. Shuning uchun bozorlarimizda nazorat va reyd tadirlari

olib boramiz, — deydi viloyat IIB JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimi, safdor Zarif Zaripov.

Mazkur soha vakillari, shuningdek, chegara postlarida o'tkazilayotgan reyd tadbir-larida ham faol ishtirot etib, iste'mol mahsulotlarining noqonuniy hamda tashish qoidalariga zid tarzda yur-timiz hududiga olib kirilishi holatlarini bartaraf etishga



munosib hissa qo'shishmoqda.

Yaqinda «Samarqand» muntazam YPX maskanida soha xodimlari tomonidan Xorazm – Toshkent yo'nalishida harakatlanib ketayotgan yuk mashinasi to'xtatildi. Avtoulovning yukxonasini ko'zdan kechirish chog'iда

selofan xaltalarga joylangan to'rt yarim tonna parranda go'shti borligi aniqlandi. Mutaxassislar tomonidan tekshirilganda esa, go'shtlar hidlanganligi va hech qan-day yaroqlilik hujjatiga ega emasligi ma'lum bo'ldi. Haydovchiga nisbatan bayonno-ma rasmiylashtirilib, ma'muriy javobgarlik belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, soha xodimlarining

sa'y-harakatlari bilan ko'plab holatlarda iste'molga yaroq-siz, sifat talablariga javob bermaydigan oziq-ovqat mahsulotlari aniqlanyapti. Shu tariqa aholining sog'lig'i muhofaza qilinmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

 PROFILAKTIKA XIZMATI

O'ZARO AHILLIKDA

Buxoro shahridagi Razzoq Hamroyev nomli mahallada istiqomat qiluvchi 7150 nafar aholi o'nga yaqin millatga mansub. Qo'ni-qo'shning ahil-ligini, hamisha bir-biriga yordamga shayligini ko'rib ko'zingiz quvnaydi. Mahalla aholisi asosan tadbirdorlik bilan shug'ullanadi. Ishsiz fuqarolar deyarli yo'q, desak, ham bo'ladi. Chunki faollar mahallada kichik tadbir-korlik subyektlari sonini ko'paytirish choralarini ko'rishi yapti.

— Aholini uch toifaga bo'lib, ko'cha-larga bo'linib olganimiz, — deydi mahalla xotin-qizlar faoli Nasiba Safarova. — Biz asosan «qizil» va «sariq» toifaga kiritilgan fuqarolar bilan jiddiy shug'ullanib kelyapmiz. Misol uchun aytadigan bo'lsak, «qizil» toifadagi 34 nafar fuqarordan 17 nafarinining bandligi ta'minlandi. Ya'ni, ular do-imiy hamda mavsumiy ishlarga jabbilindi. Yana 6 nafariga imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratilib, tadbirdorlik faoliyatini olib boryapti. Xorijiy davlatda doimiy ish bilan ta'minlash maqsadida 10 nafar fuqaro shahar Monomarkazi huzuridagi Migratsiya bo'limiga yuborildi. Bu ishlarda profilaktika katta inspektorlari Izzatillo Karimovning jonbozligi yaxshi natija bermoqda.

Buxoro shahar IIOFMB 3-sonli IIB HPB profilaktika katta inspektori, katta leytenant I. Karimov zimmasidagi vazifalarni sidqidildan bajarib, huquqbazarlarning oldini olishda hamkasblari ga o'rnak bo'lib kelyapti. O'tgan oydar davomida mahalla «sariq»dan «yashil» hududga aylantirildi. Shuningdek, fuqarolarning «102» qisqa raqamiga qiladigan murojaatlari 70 foizga kamaydi. Chunki ularning muammolari mahallaning o'zida hal etilmoqda.

Mahalla shahar bo'yicha og'ir hudud hisoblanadi. Shu bois hududdagi 41 ta ko'p qavatli uylarning barchasiغا videokuzatuv kameralari va har bir podezdga kodli qulf o'rnatilgan. Ayni paytda mahallada xatlov ishlari amalga oshirilmoqda. Hududdagi ochiq va



yopiq bozorlarda faoliyat yuritayotgan tadbirdorlarning qo'riqlash pultiga ularishi borasida targ'ibot-tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, amalgal oshirilayotgan sa'y-harakatlar natijasida mahalla hududida osoyishtalik hukmron. Fuqarolar ahil-inoqlikda

umrguzaronlik qilishmoqda. Bu ishlarda profilaktika katta inspektori, katta leytenant Izzatillo Karimovning alohida hissasi borligi e'tirof etilayotgani uning xizmatiga berilgan munosib bahodir.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

ПРОБАЦИЯ ХИЗМАТИ

ЯХШИЛИК ЧИҚАРАР ЙИГИТ ОТИНИ

Мирзачўл тумани ИИБ ЖХХ Пробация гурухи катта инспектори Элёр Акбутаев «Ипак йўли» маҳалласида яшовчи А.У.ни тез-тез йўқлаб турди. Чунки ўғирлик, босқинчиллик, талончилик жиноятларини содир қилгани учун 5 марта судланган ушбу шахс ўтган йили июн ойида жазони ижро этиш муассасасидан қайтган. Катта лейтенантнинг мuloқотлари фақат назорат билан чекланмайди, сұхбатдошининг тадбиркорлик фаолиятига ҳам қизиқади.



МЎЖИЗА

Андижоннинг табииати сўлим, бетакрор. Сувлари оқин, ҳавоси мусаффо. Ҳудудда барча табиий унсурлар мавжуд: дарёлар, қир-адирлар, боғу роғлар. Вилоятнинг Ҳўжабод тумани «Бешқовоқ» маҳалла фуқаролар йифинида жойлашган иккита митти тоғ эса мўъжизанинг ўзи. Уларнинг бири кўчанинг юзида, иккинчиси даланинг қоқ ўртасида қад ростлаб туриди.

Маҳаллий аҳоли орасини уч юз метрча масофа ажратиб турган мазкур тоғларнинг каттасини «етимтоғ», кичигини «Манак ота» деб атайди. «Етимтоғ»нинг энг баланд чўқиси 250 метрча келади. Аҳоли хона-донлари тоғнинг этагига туташиб кетган. «Манак ота»нинг узунлиги 500 метрга, эни 20–30 метрга, энг баланд қояси 60 метрга етади.

— Ёшим 66 да, шу ерда туғилиб ўғсанман, — дейди Мухаммадумар Бобоназаров. — Эсимни таниганимдан бери биламан бу тоғларни. Болалигимизда «Етим тоғ» сал пастроқ эди, назаримда, олтмиш йилнинг у ёғ-бу ёғида, тахминан,

ЎСАЁТГАН ҚОЯЛАР



4–5 метр ўси. «Манак ота» эса азиз жой. Собиқ Иттифоқ даврида қишлоғимизда совхоз ташкил этилган. Ўшанда совхоз директори «Манак ота»ни трактор билан сурдирив, текислатмоқчи бўлган. Бироқ ҳарчанд уринмасин, техника ҳаракатланмай кўйган. Шундан кейин уни бузиш фикридан қайтишган.

МФЙ хотин-қизлар фаоли Ўрингул Алматованинг айтишича, ҳудудда қандайдир синоат яширин. Миш-мишми ёки ҳақиқатми, хуллас, айрим гап-сўзларга қараганда, «Манак ота»ни оқ кийимдаги шарпа қўриқлади. Кимdir тоқقا зарар

Боиси А.У.га 10 миллион сўмлик дастлабки ижтимоий-моддий ёрдам пакети ажратилганда, иссиқона қуришни тавсия қилиб, кимдан қай йўсунда ёрдам олиш мумкинлигини тушунтирганди. Пробация хизмати ходимининг далдаси сабаб бўлдими, А.У. чин дилдан меҳнат қила бошлади. Натижада ўтган йили 50 миллион сўмлик помидор сотди. Ҳозир бозорга кўкатчиқаряпти.

Катта лейтенант шу каби йўллар билан назорат остидаги шахслар ҳамда муқаддам судланганлар томонидан қайта жиноят содир этилишининг олдини олиш чораларини кўраётir. Айни муддаода профилактик сұхбатлар ўтказади, сутканинг турли вақтларида маҳкумларнинг суд томонидан белгиланган чекловларга амал қилишларини текширади. Қолаверса, жорий йилнинг ўтган даврида ҳамкор ташкилотлар билан биргаликда 5 та «Ишга марҳамат» тадбири ташкил қилиб, 15 кишининг ишга жойлашувига эриди.

Бундан ташқари, жазони очиқда ўтаётган шахсларни

тадбиркорликка жалб қилиш мақсадида ишбилармонлар билан учрашувлар уюштирмақда. Пировардида, ўз ишини бошламоқчи бўлганлардан бир нафари 11 миллион 550 минг сўм мидорида субсидия билан таъминланди. 11 нафар маҳкум эса касб-хунарга ўқитилди. Ўз навбатида, тузалиш йўлига ўтганларнинг 11 нафари тақдимнома асосида муддатидан олдин шартли равишда озодлик чиқарилди.

Ушбу саъй-ҳаракатлар натижаси ўлароқ жорий йилда назорат остидаги шахслар томонидан қайта жиноятлар содир этилишига йўл қўйилмади.

ИИВ ЖХД Пробация бошқармаси 2024 йил якунлари бўйича Мирзачўл тумани пробация гурухи энг яхши деб топилиб, лавҳамиз қаҳрамони катта инспектор Элёр Акбутаев февраль ойида қимматбаҳо совфа ва пул мукофоти билан рафбантаририлган.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиrimiz.
Жиззах вилояти.

тасига тошни жойига олиб бориб ташлабди, шундан кейин илонлар ҳам фойиб бўлибди.

Фермер хўжалигига қарашли экин ерининг қоқ ўртасида ястаниб ётган «Манак ота» қоялари турли хил ёввойи ўтлар билан қопланган. Бу ерда зиёратгоҳ ҳам фаолият кўрсатади. Зиёратчилар дастурхон ёзиб, таом пишириб, ўтганларнинг ҳақига дуо қилишади. Лекин ҳеч ким тоғдаги биронта жисмга қўл текизмайди. Одамларнинг тушунчасида бу ердаги ҳар битта жисм азиз ва қандайдир илоҳий. Атрофни кузатсангиз, ўзгача завқни тусисиз. Кичик бўлса ҳам, тоғ эмасми, барибир, ҳавоси соғ. Унинг ён бағрида яшовчи аҳоли содда, самимийлиги билан ажralиб турди. Бешқовоқликларнинг руҳиятига тоғнинг беғуборлиги сингиб кетган.

Мазкур ҳудуднинг тектоник тузилиши тоғларнинг пайдо бўлишига мойил, шу боис яна янги тоғлар ўсиб чиқмоқда. Аҳоли буни ўзлари биладиган белгиларга қараб фарқлайди. Масалан, қайсиридир хонадон дарвозасининг рўпарасидаги тупрокли тепалик бир неча йилдан кейин қаттиқ чўнқирларга айланниши мумкин. Йиллар, замонлар ўтиб, митти қоялар қандай кўриниш олишини узоқ келажак кўрсатади. Бугун эса улар биз учун шунчаки ақл бовар қилмас ҳодиса.

Нигора ТЎХТАМОТОВА,
ўз мухбиrimiz.
Андижон вилояти.



AKADEMIK LITSEYLARDA

SABR, ISHONCH VA INTILISH

insonni muvaffaqiyatga eltadi

– Sportga qiziqishim mablag'ida davrimdayoq boshlangan, – deydi IIV Surxondaryo akademik litseyi o'quvchisi Husniddin Shosaidov. – Albatta, karate meni yaxshigina pishitgan. Keyinroq qo'l jangi sport turiga qiziqib, mashg'ulotlarga qatnay boshladim. Boshida musobaqlarda ishtirok etib, 9 marta ketma-ket mag'lubiyatga uchraganman. Hatto ota-onam yutqizishimga o'rganib ham qolishganidan, har gal musobaqa yakunlangach, qo'ng'iroq qilib, «Yana yutqazdingmi?» deb so'raydigan bo'lib qolishdi. Lekin ortga chekinmadim. Har yutqizig'imning alamini mashqlarda chiqarishga urindim va «Men baribir g'olib bo'llaman!» degan qat'iy qaror bilan harakat qildim. O'sha kun keldi va otam «Yana yutqazdingmi?» deb so'raganida, «Yo'q, bu safar g'olib bo'ldim», deya baralla ayta oldim.

Ha, sabr, ishonch va qat'iy maqsad sari intilish insonni muvaffaqiyatga eltadi. Buni Husniddin Shosaidovning erishayotgan yutuqlarida ko'rishimiz mumkin. U o'zi tanlagan sport turi bo'yicha shug'ullanishda davom etdi. Mashaqqatli tayyorgarliklardan so'ng Husniddinining imkoniyatlari orta boshladи. Lavhamiz qahramoni 2023-yilda qo'l jangi bo'yicha yoshlar va o'smirlar o'rtasida

O'zbekiston hamda Moskvada o'tkazilgan jahon kubogida 2-o'rinni egalladi. 2024-yilgi respublika championatida ham 2-o'rinni, Buxoroda o'tkazilgan jahon championatida esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Ketma-ket g'alabalardan keyin ham Husniddin mashqlarni to'xtatmadi. Murabbiysi Akbar Nasriddinov boshchiligidagi qo'l jangining barcha sir-asrorlarini yanada puxta o'rgana boshladи. Uning sa'y-harakatlari zoye ketmadi. Yaqinda Husniddinga qo'l jangi bo'yicha sport ustasi unvoni berildi.

– Sport meni chidamli bo'lishga, doim maqsad sari dadil odimlashga o'rgatdi, – deydi yosh sportchi. – Fanlarni yaxshi o'zlashtirishimga ham yordam berdi. Kelajakda ichki ishlар organlari xodimi bo'lishni va odamlarni himoya qilishni niyat qilganman. Hozirda huquqshunoslik va boshqa fanlardan imtihonlarga tayyorgarlik ko'ryapman.

Husniddinining surati litseydagи hurmat taxtasiga ilingan. Shu birgina e'tirofning o'zi unga faxr va ishonch tuyg'usini beradi. Kelajak sari katta rejalar tuzishga va faqat oldinga intilishga turtki bo'lib xizmat qiladi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.



KASB FIDOYILARI

Bolalikdagi orzu insonning kelajak yo'llarini yoritar ekan. Buning tasdig'ini III darajali serjant Shuhrat Isaxonov hayoti misolida ham ko'rishimiz mumkin. Namangan viloyatining Pop tumanida tug'ilgan bu yigit yoshligidan harbiy bo'lishga havasi baland edi. Lavhamiz qahramoni o'zining yigitlik burchini o'tagach, azaliy orzusini amalga oshirishga astoydil kirishdi.

MAS'ULIYATNI SHARAF BILIB...



Ilk xizmat faoliyatini IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Namangan viloyatidagi 7552-harbiy qism 1-o'qchi vzvod, boshqaruva guruhining ruxsatnomalar byurosi navbatchisi lavozimida boshladи. Sohaning sir-asrorlarini chuqurroq o'rganishida ustozlarining xizmati muhim ahamiyat kasb etdi. U tinimsiz izlanishi va fidoyili tufayli safdoshlari orasida hurmat-e'tibor qozongan. Sh. Isaxonov ayni paytda ushbu harbiy qism nazoratchilar vazvodi 2-toifali nazoratchisi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Xizmati davomida mas'uliyatini teran his qilib, mahkumlar saqlanayotgan obyektlarda jinoyat va huquqbazarliklar sodir etilishiyo'l qo'ymadи. Shuningdek, qo'riqlanayotgan muassasaga taqiqlangan buyumlarni olib kirishga harakat qilgan shaxslarni qo'lga olishda jonbozlik ko'r-satdi. Buning uchun qo'shinlar qo'mondonligining Faxriy yorlig'i

va esdalik sovg'alari bilan mukofotlandi.

Shuhrat Isaxonov harbiy qismda o'tkaziladigan turli tadbirlarda ham faol ishtirok etib, o'z xizmatdoshlariga namuna bo'lib kelmoqda. Uzoq 21 yillik xizmat faoliyati davomida orttirgan boy tajribasini shogirdlari serjantlar Husniddin Turdiyev, Ergashali Mamatzulov hamda kichik serjant Fazliddin Jo'rayevga o'rgatib kelmoqda.

– Harbiylik mashaqqatli kasb, shuning uchun bu sohada hamma ham xizmat qilavermaydi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Hayotimni ana shunday sharafli va mas'uliyatli kasbga baxshida etganimdan behad baxtiyorman.

Albatta, ona Vatanning asl himoyachisi teran fikrli hamda qalbi toza bo'lmog'i darkor. Chunki ular yurt posbonlari, baxtiyor va farovon hayotimizni ta'minlovchi qo'rqmas va dovyurak, mard insonlardir.

O'z muxbirimiz.
Namangan viloyati.

BIR FILM TARIXI



«OMADLI JENTELMENLAR»

O'zbekistonda tasvirga olingan(mi)

Millionlab muxislarning qalbini zabit etgan «Omadli jentelmenlar» kriminal komediysi bilan bog'liq haqiqatlar barchaga birdek qiziq.

Markaziy Osiyoda arxeologik ishlar olib borayotgan Nikolay Malsev o'z jamoasi bilan Aleksandr Makedonskiyning oltin dubulg'asini topib oladi. Bir guruh o'g'rilar esa uni o'g'irlab ketadi. Arxeolog Moskvaga qaytganida, o'g'ri bilan qiyofadosh bo'lgan bog'cha mudiri – Yevgeniy Ivanovichni uchratadi. Militsiya xodimlari jinoyatchilarni qo'lga oladi, lekin ular oltin dubulg'a qayerda ekanini aytmaydi. Har qanaqa yo'l bilan arxeologik topilmani qaytarishga uringan militsiya xodimlari Yevgeniy Ivanovichni «Dotsent» bo'lib yashashga ko'ndiradi...

Voqealar rivoji shu tarzda boshlanuvchi filmning suratga olish ishlari Moskva hamda Samarcand shaharlari, ularning atrofida olib borilgan. Kinokartinada Markaziy Osiyo deb tanishtirilgan joy, tuya yetaklash sahnasi, qamoqxonasi shinasining darvozadan muassasa

hovlisiga kirishi, bolalar bog'chasi mudiri bo'lgan va «Dotsent» laqabi bilan mahbuslar orasiga kiritilgan bosh qahramonning kameradagi sarguzashtlari hamda jinoiy ham-tovoqlari bilan suyuq beton (aslida un va rangli kukunlardan tayyorlangan suyuq qorishma) solingan



yuk mashinasida qamoqxonadan qochish jarayonlari aynan Samarcand viloyatining Kattaqo'rg'on tumanidagi hozirgi 7-sonli Tergov hibxonasida suratga olingan. Hattonki, o'sha vaqtarda qamoqxona rahbari bo'lgan Izzat Nosirovga ham filmda muassasa boshlig'i ro-

tezda olamshumul mashhurlikka erishadi. 1972-yildan televide niye-da namoyish etila boshlagan filmni bir yil ichida 65 milliondan ortiq tomoshabin ko'rgan. Kinoteatr oldida tomoshabinlarni navbatda turishga majbur qilgan kinokartina chiptalarini chayqovchilar 20, hatto



lini ijro etish taklif qilingan. Ammo u mansab vakolati bunga to'g'ri kelmasligi sabab, ushbu taklifni rad etgan.

Ma'lumotlarga qarganda, bosh rolni ijro etgan Yevgeniy Leonov o'z qahramoni qiyofasiga to'la-qonli kirishish uchun unga berilgan maxsus ruxsatnoma orqali Moskvadagi «Butirka» qamoqxonasi qirib, eshik tuynugidan ashaddiy mahbuslarning xatti-harakatlari, ovozi va mimikalarini kuzatib, rolga tayyorgarlik ko'rgan. Shu sababli ham aktyor ijrosidagi obraz haqqoniy chiqqan.

«Omadli jentelmenlar» kinokartinasi katta ekranlarga 1971-yil 13-dekabrda chiqadi va

30 barobar qimmatga sotishgani ham bor gap.

Qolaversa, barchamizga qadr-don bo'lgan bu kinokomediya davrlar almashib, yillar o'tsa-da, haligacha eng ko'p qayta ko'ri-ladigan sevimli retro filmlarimiz qatoridan joy olgan. Buni, shubhasiz, aktyorlar mahorati-yu ularning senariyida yozilgan ajoyib gaplarini misol qila olamiz. Filmning suratga olinishiga hissa qo'shib, o'zidan buyuk iz qoldirgan ijodi yuruh a'zolariga nisbatan bemalol «Omadli jentelmenlar» iborasini ishlatsak ham bo'ladi.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA tayyorladi.



ТЕРИНГИЗНИ ҚҮЁШ НУРИДАН АСРАНГ

Баҳор келиб, кунлар исий бошлагани сари юз терисини қүёш нуридан ҳимоя қилувчи воситаларга бўлган эҳтиёж ортади. Қүёшдан ҳимоя қилувчи SPF кремлари терини ультрабинафша нурларнинг салбий таъсиридан ҳимоя қилади. Бунинг учун эса кремни тўғри танлаш ҳамда тўғри қўллаш муҳимдир.

Аввало, SPF кремини тўғри танлаш хусусида гаплашамиз. Крем қадогидаги 15, 30 ёки 50 рақамлари қўёшдан ҳимояланиш даражасининг кўрсаткичи эканини ва улар орасидаги фарқни ҳамма ҳам аниқ билмаса керак. Масалан, айримлар SPF 50 креми кун бўйи терини ультрабинафша нурлардан ҳимоя қила олади, деб ўйлашади. Аслида ундан эмас, чунки бундай кремларни ҳар 2–3 соатда қайта қўллаш керак. Унда нимага мутахассислар SPF 50 қўёшдан ҳимояловчи кремини харид қилишни тавсия этишиади? Чунки SPF 50 қийматига эга воситалар бошқаларига қараганда ишончлироқ. SPF 15 креми ультрабинафша нурларнинг 93 фоизидан ҳимоя қилади, уни терига қалинроқ қўллаш кераклигини кўрсатади. SPF 30 ультрабинафша нурларнинг 97 фоизидан, SPF 50 эса 98 фоизидан ҳимоя қилади.

SPF кремларининг фойдалилик хусусияти:

- * терини намлайди;
- * тури заарарли нурлардан ҳимоя қилади;
- * терини озиқлантиради;



кўпчилик катта хатога йўл қўяди. Қўёшдан ҳимоя қилувчи кремлар кўпинча оқ бўлгани учун терида маҳсулот изини қолдирмаслик мақсадида оз миқдорда суради. Натижада тери худди SPFни умуман кўлламагандек қўринишида тураверади. Шунинг учун косметологлар «икки бармоқ» қоидасини ўйлаб топди. Кўрсаткич ва ўрта бармоқларни олдинга чўзиб, крем бутун бармоқ узунлиги бўйлаб сиқиб чиқарилади.

* доғлар, сепкиллар, ажинлар билан курашишга ёрдам беради;

* тери рангини текислаб, соғлом ва ёрқин кўриниш беради;

* терини оқартиради.

Энди эса фойдаланиш хақида. Айнан шу босқичда

Қабул қилинган крем миқдори ультрабинафша нурлардан ҳимоя қиладиган зарурий меъёрdir. Аммо бундай миқдордаги крем бир вақтнинг ўзида терида ноқулайлик туғдириши мумкин, шунинг учун эрталаб етарлича вақт бўлса, SPFни икки қатлам қилиб қўллаш мумкин. Фойдаланишда бўйин ва қулоқларни эсдан чиқармасдан, керакли миқдорда кремнинг ярмини бутун юзга эҳтиёткорлик билан тақсимлаш, уни 15–20 дақиқа давомида намлаш ва кейин жараённи тақрорлаш керак. Кремнинг иккинчи қатлами тўлиқ сўрилганида, унинг устидан макияж қилиш ҳам мумкин. SPF косметика қўллангандан кейин ҳам қўёшдан янада яхши ҳимоя қилади.

Қўёшдан ҳимоя қилувчи кремларни, айниқса, рангпар кишилар, шунингдек, танасида холи кўп бўлгандар қўллаши тавсия этилади. Буғдои ранг тери қўёш ва ёш доғларига камроқ мойил бўлади, лекин шунда ҳам уни ҳимоя қилиш мақсадга мувофиқ.

Адолат ФАЙЗИЕВА тайёрлади.


(Тавсияларга амал қилишдан аввал шифокор-мутахассис билан маслаҳатлашинг).

4 ПРИЧИНЫ ПИТЬ ЧАЙ ИЗ ЛИСТЬЕВ СМОРОДИНЫ

1. Борется с воспалениями.

Настой из листьев смородины обладает противовирусным и противовоспалительным эффектом.

2. Снижает уровень холестерина.



Уменьшает «плохой» холестерин и укрепляет кровеносные сосуды.

Флавоноиды улучшают работу сердечно-сосудистой системы.

3. Комплексно защищает организм.

Болезни, курение и экологические факторы увеличивают количество свободных радикалов, что наносит вред клеткам.

Чай из листьев смородины богат мощными антиоксидантами и защищает

организм.

4. Обладает мочегонным эффектом.

Издавна используется для снятия отеков.

Помогает очищать организм.

ПРОДУКТЫ, ПОЛЕЗНЫЕ ДЛЯ ЗУБОВ

Добавьте эти продукты в свой рацион для здоровых и крепких зубов.


Жесткие овощи и фрукты – полезный перекус. Например, морковь, огурцы, яблоки. Пережевывая жесткую пищу, вы массируете десны и избавляете зубы от отложений. К тому же такие продукты стимулируют выделение слюны, которая в свою очередь омывает ротовую полость, уменьшая количество бактерий.

Морепродукты – укрепляют зубную эмаль и защищают от кариеса.

Молочные продукты – предотвращают воспаление с помощью казеина и ферментов.

Орехи – в их состав входят аминокислоты, полиненасыщенные жирные кислоты, витамины A, B, C, D, E, P, калий, кальций, магний, фосфор и другие минеральные элементы.

Зелень – борется с бактериями и естественным образом очищает зубы.



■ Наманганская область



Для сотрудников УБДД СОБ УВД области была организована экскурсия в музей «Жасорат», созданный при Академическом лицее МВД в Намангане.

Музей представляет экспонаты, отражающие славную историю органов внутренних дел области, и оснащен современными цифровыми технологиями.

Во время экскурсии сотрудники ознакомились с экспозицией музея, историческими документами.

Особый интерес у посетителей вызвали уникальные фотоматериалы, рассказывающие о героизме сотрудников правоохранительных органов в разные исторические периоды. Экскурсоводы подробно рассказали о значимых событиях, связанных с обеспечением правопорядка и безопасности.



Подобные мероприятия способствуют повышению профессиональному самосознания сотрудников, укрепляют уважение к истории ведомства и мотивируют их к добровольному исполнению служебных обязанностей.

Соб. корр.

СКАНВОРД

В каждом определении этого сканворда допущена одна ошибка. Вам придется восстановить истинные значения определений.

| Нелестная сцена | Дуб огня | Тихое снижение | Наказание за орехи | Винегрет по своей мутти | Витки, катушка | Плач проезда |
|--------------------------|-------------------------|-------------------------|----------------------|-------------------------|------------------------|--------------------|
| Секретный коп | Целое мясо, белый соус | «Мишка» на стволе | Сверло с тучкой | Юркий концерт | Зеро с мягким стержнем | Вонь, но не когонь |
| Вера объема | Букет с японским шарфом | Наи-меньшая часть цвета | Низкий мужской бас | Печная нимфа | Железный коп | |
| Швейцарский, но не нос | Когда ни грома за душой | Ласт лука | «Брак» ястреба | Укол в избе (местн.) | Бес в речной долине | Фанера одеваться |
| Особое тесто в театре | «Усушка» товарища | Гордый хрусталь | Гид соревнований | | | |
| Площадь в воинской пасти | Теплая скань пальто | Минерал с икрой цветов | Целая одежда в Индии | Для макияжа рек | Сон осла, но не осел | Бараний порок |
| | | Древняя борода собак | Больная волна | «Мост» над трясиной | | |

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(7 - 13 апреля)



Қўй. Бу ҳафта ҳаётингизда нимаики содир бўлмасин, ҳаммасини яхшиликка йўйишга ҳаракат қилинг. Оилада баъзи бир тушумовчилик ва кўнгилхириаликлар кузатилиши мумкин. Лекин бу вазиятда ўз манфаатларингизни четга суреб, муроса йўлини тутганингиз маъкул.



Бузоқ. Сизни қизғин ҳафта кутмоқда. Ҳам ишдаги, ҳам турмушдаги масалаларни ҳал қилишга тўғри келади. Саъй-ҳаракатларингиз ўз натижасини бериб, барча муаммоларнинг уддасидан чиқишига эришасиз.



Эгизаклар. Бу даврда иш фаолияти олд сафдан ўрин эгаллади. Раҳбарият томонидан сизга келажакда касбий ўсишингизга таъсир кўрсатиши мумкин бўлган мураккаб вазифа топширилади. Шу сабабдан имкон қадар диққатли, хушёр ва ғайрат-шижоатли бўлишга ҳаракат қилинг.



Қисқичбақа. Ҳаётингизда жиддий ўзгаришларга тайёр туриңг. Умрини иккинчи жуфтит билан боғлашга улгурмаганларни бу ҳафта янги танишувлар кутмоқда. Кайфиятингиз ва руҳий ҳолатингизга эътиборли бўлинг. Ўзингизни ёмон ҳис қила бошласангиз, ишдан бироз таътил олишни тавсия этамиз.



Арслон. Ушбу давр сиз учун жуда ҳаяжонли кечади. Кўпгина устувор ва аҳамиятга молик ишларни ҳал қилишга эришасиз. Лекин ушбу жўшқин жараёнда ҳужжатларга алоҳида эътибор қаратинг: ниманидир имзолашдан олдин, уни диққат билан ўрганиб чиқиши унутманг.



Паризод. Руҳий тушкунлик ва безовталик ҳисси – сизга бу ҳафта панд бериши мумкин бўлган ҳолатлар ҳисобланади. Ўз ҳисларингизни жиловлашга ҳаракат қилинг. Межмонга таклиф этишса, зинхор рад этманг – бу ҳаётингизга ўзгача завқ бағишлади.



Тарози. Ҳафтанинг илк кунлари молиявий аҳволингиз яхшиланиб, ҳатто сармояли таклифлар олишингиз мумкин. Бу паллада сизни янги таассуротлар ва ёрқин ҳис-туйгулар кутмоқда. Ҳам шахсий масалалар, ҳам иш юзасидан кўп жойларда бўлишингиз кутилмоқда.



Чаён. Оилавий муносабатларни мустаҳкамлаш учун яқинларингизга кутилмаган совға ҳозирланг. Улар бу ҳаракатингизни, албатта, қадрлашади. Ҳафтанинг иккинчи ярмида руҳиятингиз яхшиланиб, кайфиятингиз кўтарилади.



Ўқотар. Сизни ёқимли ўзгаришлар кутмоқда. Оила аъзоларингиз билан муносабатда баъзи қарашларингизни ўзгартириб, сабрли ва ширинсўз бўлинг. Жисмонан оғир вазифалардан четлашиб, таъбни хира қилувчи ва кўнгилни оғритувчи барча ҳолатлардан узоқлашинг. Ҳафта сўнгига улар билан бирга тоза ҳавода сайр қилинг.



Тоғ эчкиси. Душанба ва сешанба шахсий ҳаётга эътибор қаратиш учун қулай палла. Кейинги кунлар одатдагидек бир хилда ва зерикарли ўтиши, на яхши, на ёмон хабар улашмаслиги кутилмоқда. Ҳафта сўнгига мазкур ҳафта иш билан боғлиқ тадбирларда иштирок этиш учун мақбул даврdir.




Қовға. Шу кунларда ким биландир тортишган ва жанжаллашган бўлсангиз, имкон қадар тезроқ ярашишга ҳаракат қилинг. Узайган низолар яхшилик олиб келмайди. Иш жойингизда зиммангизга мураккаб вазифа юкланиши мумкин. Мазкур ҳафта иш билан боғлиқ тадбирларда иштирок этиш учун мақбул даврdir.



Балиқ. Бу ҳафта касб-ҳунар ва молиявий жабҳада сизга омад кулиб боқади. Лекин ҳар бир ишда бошқарувни ўз кўлингизга олиб, кучли ишонч ва қатъият билан ҳаракат қилинг. Бу даврда ҳис-ҳаяжонга берилмай, имкон қадар босиқлик билан иш юритиш лозим. Шанба ва якшанба кунлари тоза ҳавода сайр қилинг ёки фаол ҳаракатда бўлинг.





ҚАДИМ ТЕПАЛИКДАГИ ҮЙЛАР

Уч кечаю кундузи гоҳ ўкириб, гоҳ шивирлаб эсган Қўқон шамоли толиқидёв. Қовоғи осилган кўқдан, асов бўрондан чўчиб, аллақа-ерларга яширинган қўёш уялиб ўзини кўрсатишга уринмоқда.

Турк ҳоқонлиги, Хоразмшоҳлар, Чингизийлар, Темурийлар давлатини кўрган, Қўқон хонлигининг бошкентига кунчиқар томондан кўз-кулоқ бўлиб турган ва давлат қўриқловига олинган тепаликка дуч келаман деб ўйламагандим.

Очиини айтганда, мени турлича үйлар босди. Биринчидан, тепаликка чўчиб кўтарилдим. Бу ерда не-не ота юрт қўриқчилари ёзниг жазирамасида, қишининг қаҳратонида сергаклик билан депарани кузатмаган, керак бўлса, қиличини ялан-ғочлаб ёғийларга қарши ташланмаган дейсиз. Ёв босиб келаётганидан дарак бериш учун ёқилган ўтиналардан осмонга ўрлаган


тутун иси димоғимга урилгандек туолди. Қурол-аслаҳа жаранг-



Илиқлиқ арафа куни кўчага отланган кишилар кайфиятига ҳам кўчган. Тўрт томон эгнига яшил кийим ташлашга шошмоқда.

Кўчатлар бирин-кетин гуллаб бормоқда. Йўлим четидаги қирмизи чечакка бурканган шафтозорнинг чеки кўринмайди. Осмон ерлашган чегарагача олам алвон тусга бўялган.

Зарурат туфайли Бағдод туманидаги қадимий Қоровултепа қишлоғига боришига тўғри келди. Бу ерда Кушонлар давлати,



журунги, яраланган чериклар инграши қулоғимга чалинади. Шаҳидларнинг тўкилган қони билан қизарган азиз тупроқ.

Иккинчидан, икки минг йилдан зиёд ўтмишдан тилсиз сўзлаб

турган ёдгорлик қаровсиз қолганидан чўнг ўксидим. Қинғирқийшиқ зина. Қуриган дарахт шохлари. Сўппайиб турган заъфарон темир лавҳа. Ёдгорликка бутунлай ярашмаган замонавий чала қурилиш.

Мен туғилиб ўсган туманда олисларда қолиб кетган вақтдан дарак бериб турган жойлар деярли йўқ. Борини ҳам эплаб асролмасак, кўрсатолмасак...

Шерикларим ишини битириб келишгач, ортга қайтдик. Ганим келиши мумкин бўлган чўлдан бугун асар ҳам қолмаган. Тасмадек текис асфальт йўл. «Оникс» уни ямлаб бормоқда. Кўнглимнинг бир четида эса изтироб қайнайди.

Қанийди Бағдод тумани ҳокимлиги эл посбонлари бўлган ота-боболар қутлуғ қадами тушган икки минг йиллик тарихга эга бундай тепаликни унинг номига мослаб қайта тиклаш, чор-атрофини ободонлаштириш ташаббуси билан чиқса. Бу ер киндик қон тўкилган тупроқни асрорчи ботир широқлару жасур тўмарисларни тарбиялагувчи табаррук масканга айланарди.

**Файратжон БОЛТАБОЕВ,
истеъфодаги полковник.**



МАЪЛУМОТ ЎРНИДА:

Файратжон Болтабоев 1954 йил 14 ноябрь куни Фаргона вилояти Бағдод туманида туғилган. ТошДУнинг журналистика факультетида таҳсил олган. 1978–1984 йилларда Бағдод туманидаги «Авангард» газетасида мухбир, масъул котиб ва бўлим мудири бўлиб ишлаган.

1984–2012 йилларда ички ишлар органларида турли раҳбарлик лавозимларида хизмат қилган. 1990–1992 йилларда «Postda» газетаси таҳририятини қайта ташкил этилишида муҳаррир ўринбосари сифатида бевосита иштирок этган. 2021 йилдан ҳозирга қадар Ўзбекистон Республикаси ИИВ Фахрийлар кенгаши раисининг ўринбосари, Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси аъзоси.

«Яхшиларнинг жўраси», «Ўчмас из», «Илларни ҳайратга соглан тутувлик» китоблари чоп этилган.

Суратда: Файратжон Болтабоев ўғли ва невараси билан.

MUASSIS:

О'zbekiston Respublikasi Ichki Ischlар Vazirligi

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinnbosarlari

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
mayor Aziza BOHODIROVA

Navbatchilar

Adolat FAYZIYEVA
Radik TUMPAROV

Mas'ul kotib

Erkin SATTOROV

Sahifalovchilar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalar
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodи 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yhatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 871.
Bosilish – offset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
45402 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqtı – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxonha manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1st-uy.